

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Qarshi Davlat universiteti

Psixologiya kafedrası

BO`TAEVA HULKAR G`OFUROVNING

**“5140800 Pedagogika-psixologiya” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr
darajasini olish uchun “Boshlang’ich sinf o`quvchilarida aqliy taraqqiyot
shakllanishining psixologik xususiyatlari”
mavzusida yozgan**

Bitiruv malakaviy ishi

Qarshi -2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-BOB: Aqliy taraqqiyotning o`rganilishi ilmiy-nazariy muammo sifatida.....	6
1.1. Aqliy taraqqiyot muammosining psixologiya fanida o`rganilishi.....	6
1.2. Boshlang`ich sinf o`quvchilari aqliy taraqqiyotining shakllanishida bilish jarayonlarining o`rni.....	16
II-BOB. Boshlang`ich sinf o`quvchilarida aqliy taraqqiyot rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari.....	33
2.1. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining aqliy taraqqiyoti rivojlanishga ta`sir etuvchi omillar.....	33
2.2. Boshlang`ich sinf o`quvchilari aqliy rivojlanishida qo`llaniladigan metodikalar.....	39
Xulosa.....	51
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	53

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekistonni mustaqillikni qo'lga kiritgach mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan shaxsni shakllantirish ta'lim va maoruf tizimini yuksaltirishdek ustuvor vazifalrni amalga oshirishga alohida e'tabor berildi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish uning zaminini mustahkamlash zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish barkamol avlodni tarbiyalash zarur" ushbu mulohazalarda ko'rinib turibdiki Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida shaklanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish ularning zamon talablari darajasida bilim olishi shaxs sifatida kamol topishi boshlang'ich ta'lim sirlarini o'rganish va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonida ko'ndalang bo'lib turibdi. Ma'lumki "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da keltirilgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bug'unlarida ushbu muammoni hal etishda o'qitish jarayoni subyektlarining o'ziga hos o'zni mavjud shu o'rinda mamlakatimiz taraqqiyoti boshlang'ich ta'limdan boshlanishi lozimligini ham bejizga qayt etilmagan.

Bola aqliy taraqqiyotini ribojlantirishda psixologik yondashuvlar o'zni beqiyosdir bunda albatta o'qituvchi ta'lim berish orqali o'quvchilar intellektual salohiyatini oshirish erkin fikrlashga o'rgatishga alohida ahamiyat berishlari zarurdir.

Shu o'rinda I.A.Karimov "O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarni hosil qilishdan iboratdir". Demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar mustaqil fikrlash ham katta boylikdir, deb o'qitirib o'rganganlar shu bois ham bitiruv malakaviy ishimiz boshlang'ich sinf yoshidagi bolaga ta'lim berish bilan birga uning aqliy taraqqiyot darajasini shakllantirishga oid psixologik yo'ndashishlarning yangicha usullarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llab olish zarurdir.

Jahonning barcha davlatlarida bo'lganidek kabi dunyo haritasida munosib o'rin olgan respublikamizning ta'lim sohasida islohatlar boshlandi. Bu islohatlarning barchasi inson ongli har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib inson va uning mukammalligi o'z ustida ishlashi o'z mukammalligi hususida qayg'urish muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning aqliy rivojlanishining muammosining psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratiladi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish yosh avlod

ongining ta'lim olish davridagi rivojlanish tenditsiyalaridan tortib toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tominidan o'zlashtirishi va undagi aqliy intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish ma'naviy barkamollik tamoillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish psixologik yo'ndashish o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbqiq etishni taqozo etadi. Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning bilish jarayonlari va aqliy rivojlanishni tarkib toptirishda psixologik yo'ndashuvlarning tadbqiq etish ishning bosh maqsadi sifatida gavdalanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

Boshlangich sinf o'quvchilarida aqliy taraqqiyot shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Tanlangan mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish psixologik ta'limotlarni umumlashtirish;
- Boshlangich sinf o'quvchilarining aqliy taraqqiyotida bilish jarayonlarinig ahamiyatini psixologik tahlil qilish.
- O'quvchilarning aqliy (intellektual) rivojlanishining o'ziga xos psixologik xususiyatlarini aniqlash;
- O'quvchilarning aqliy (intellektual) rivojlanishining samarali metod va vositalarini aniqlash;

Bitiruv malakaviy ishning obykti: Boshlang'ich sinf o'quvchilari.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanish bosqichlarini aqliy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, bilish jarayonlarini rivojlantirish usullari.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi: Aqliy rivojlanish muammosiga doir nazariy materiallarni o'rganib, bir tizimga keltirdik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'ziga hos pedagogik psixologik hususiyatlarining tarkib toptirish masalalari tahlil qilindi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishida metodikalar ahamiyatini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati:

- Boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilar aqliy taraqqiyotini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarning yechishda psixologiya yo'ndashuvlarining nazariy va amaliy tomonlaridan foydalanish mumkin.

- Yosh va pedagogik psixologiya fanini o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:

Kirish, 2 bob, 4 ta bo'lim, xulosalar va tavsiyalar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy taraqqiyoti shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish nazariy muammo sifatida

1.1. Aqliy taraqqiyot muammosining psixologiya fanida o'rganilishi.

Psixologiya fanida aqliy taraqqiyot, aql, intellekt muammosiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mohiyati jihatidan bir kategoriyaning har xil mezonlar bilan o'lchashda o'z ifodasini topadi. Quyida ularning hammasida to'xtalib, nazariy - amaliy jabhalari izohlab beriladi.

Davlat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi ko'p jihatdan uning intellektual potentsiali va shaxs tarakkiyoti bilan belgilanadi. Chunki, ilmiy potentsiali yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg'or bo'ladi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaginidek, Vatanimiz kelajagi islohatlarning taqdiri va ularning natijalari, xalqimizning bilim darajasi davr talabiga va taraqqiyotiga qanchalik mosligiga, qanday mutaxassislar etkazib berib, o'rnimizni egallashlariga bog'liqdir. Shuning uchun mamlakatimiz rahbariyati ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratayapti. Shunga ko'ra, yuqori malakali kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasidaga ko'tarilmoqda.

Yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishish uchun ta'lim jarayonini tashkil qilish va boshharishning o'ziga xos talablari mavjud. Birinchidan, o'quvchilarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi davlat tarmoq ta'lim standartlari talablariga mosligini ta'minlash. Ikkinchidan, o'quvchilarning mustaqil ijodiy faolligini davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalari doirasini to'liq qamrab olishga erishish. Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalari doirasidan tashhari fundamental va axborot texnologiyalariga doir bilimlarni o'zlashtirish va ilmiy tadqiqotlar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish bilan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash shartlari hisoblanadi.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillaridan biri, ta'limning ustuvorligi –uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzidir.

Intellektual – so'zining lug'aviy ma'nosi aqliy jihatdan etuklik, fahm-farosat, aql-idrok, zakovat, zukko ya'ni zakovatli inson, zukko bo'lish demakdir.

Mexanizm - so'zi muayyan bir maqsadni amalga oshiruvchi omillar, faktorlar, tizimga, bir tartibli qolipga solish, ketma-ketlikni to'g'ri tanlay bilish demakdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda ma'lum darajada o'quvchilarni aql zakovatini rivojlantiruvchi, zukko va ijodiy izlanuvchan bo'lishini ta'minlovchi omillar haqida fikrlar bayon etilib ayrim tavsiyalar mushohada qilish uchun o'rta tashlanadi.

Aqliytaraqqiyotning nazariy va metodologik mohiyatini ochish uchun mana bunday tomonlarga aloxida e'tibor qilamiz.

- 1) jahon psixologiyasi fanida aqliy taraqqiyotning o'rganilishi;
- 2) Sobiq sovet psixologlari tadqiqotlarida aqliy taraqqiyot muammosi;
- 3) mamlakatimiz psixologlarining tadqiqotda aqliy taraqqiyot masalasi;

Aqliytaraqqiyot juda ko'p psixologlarni qiziqtiradigan muhim masala bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu muammo ustida juda qiziqarli tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq unga har xil yo'nalishdan turib yondashilgan. Shularni nazarda tutib, bu to'g'rida umumiy nuqtai nazar, umumiy mezon yuzasidan mulohaza yuritish mumkin emas. Shuningdek, aqliy taraqqiyotning tarkibiy qismlari bo'yicha ham xuddi shu fikrlarni bildirish o'rinlidir.

Insonning aqliy taraqqiyotini o'rganish muammosi qadimgi davrlardayoq juda ko'p soha bilimdonlarining e'tiborini tortgan. Hatto, antik davr faylasuflari ham bu muammoga jiddiy yondashganlar. Ularning harashlariga ko'ra, "intellekt" termini o'zida lotincha "nus" ("aql") tushunchasini ifodalaydi. Antik davrning Platon va Aristotel kabi faylasuflari "nus", ya'ni "aql" odam ruhining oliy, o'ziga xos aqli bo'lagi bo'lib, olamni bilishning eng maqbul yo'li deb hisoblashadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning o'rta asrlariga kelib, "intellekt" terminining mazmuni yanada boyidi. Masalan, sxolastikada ilohiy intellekt tushunchasi o'rganila boshlandi, bu termin bilan oliy bilish qobiliyatlarini tushuntirishga harakat qilindi. Mashhur faylasuf I.Kant nazariyasiga binoan, "intellekt" (nemischa-verstand) bu bizdagi mavjud tuzilishni bilish qobiliyatidir, aql (nemischa-vernunft) esa metafizik, g'oyalar tuzilishini bilish qobiliyatidir".

Intellektning mohiyati va taraqqiyotini tushuntirishda qadimdan oqimlar yuzaga kelganligiga haramay ma'lum bir fikrlar asosida birlashganlar va bahslashganlar.

Intellektning mohiyatini tushuntirishda fan olamida ikki xil yondashuv vujudga kelgan:

1. Birinchi guruh vakillarining harashlaricha, intellektual xususiyatlar odamga tabiiy ravishda (holda) nasliy yo'l bilan ota-onalari tomonidan beriladi. Odam onasidan aqli yoki aqli zaif bo'lib tug'ilgan bo'ladi.

2. Ikkinchi guruh namoyandalari esa intellektni bola idrokining tezligi va tashqi qo'zg'atuvchilarga nisbatan bo'lgan munosabati bilan bog'lab tushuntirganlar.

"Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat-ma'rifatli insonning ikki qanoatidir" Shunday ekan, insonning aqliy taraqqiyotini o'rganish uchun kechiktirib bo'lmaydigan amaliy ishlar olib borish maqsadga muvofiq. Intellekt muammosi chet el psixologiyasida ham, rus psixologiyasida

ham eng ko'p o'rganilayotgan mavzulardan biridir. Intellektning mohiyatini yoritish yuzasidan turlicha yondashilsada, biroq umumiy maqsad insonning intellektual taraqqiyotini ochib berishdan iboratdir.

Intellekt tushunchasini rus psixologlari aqliy iste'dod yoki qobiliyat deb yuritishadi. Chet el psixologiyasida qobiliyatni miqdor jihatdan o'lchash hamda uni xarakterlab berish uchun intellekt tushunchasi kiritilgan. O'z davrining yirik psixologlari bo'lgan R.B.Kettel, L.Termen, Ch.Spirmen va boshqalar o'tgan asrning boshlaridayoq inson qobiliyati darajasini o'lchash uchun turli xarakterdagi intellektual testlarni yaratganlar. Bundan kuzatilgan maqsadturli ixtisoslar uchun kasb tanlash amalga oshirish yoki kasbga yaroqliligini, layoqatliligini aniqlashdan iboratdir.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning XIX asr oxirlariga kelib, psixologiya fanidan intellektni o'rganishga aloxida e'tibor berila boshlandi. Frantsuz psixologi A.Bine intellektni tadqiq qilish bo'yicha dastlabki qadamni qo'ydi. T.Simon bilan birgalikda bolalar intellektining rivojlanish darajasini tadqiq qiluvchi testlarni ishlab chiqdi. Izlanishlarga nazariy asos qilib, o'sha davrda hukmron mavqega ega bo'lgan funktsional psixologik nazariya qo'llanilgan bo'lib, unda psixik rivojlanish bir necha psixik tug'ma funktsiyalar rivojlanishining natijasida yuz beradi, degan fikr ustunlik qilardi. Mana shu nazariyaga amal qilgan holda, u shunday masalalarni tanladiki, bunda bolaning ilgari bilimlari va ko'nikmalarini qo'llash imkoniyati kamaytirildi. "har bir yosh davri uchun shunday testlar seriyasini tuzish kerakki, uning echilishi faqat shu davrga taaluqli bo'lsin. Test maktab bilimlaridan mustaqil bo'lishi kerak, shunda bolaning haqiqatan ham aqliy rivojlanish darajasi tekshiriladi", - deb yozgan edi A.Bine. Bola intellekti har qanday masala echish jarayonida rivojlanadi degan g'oyadan kelib chiqqan holda u test topshiriqlarini nazariy asoslash shart emas, deb hisoblaydi.

XX asr boshlariga kelib, intellektni tadqiq qilish haqidagi A.Bine, T.Simonlardan keyin bir qator boshqa ko'rinishdagi testlar tizimi hamda mazkur mualliflar testlarining modifikatsiyalari vujudga keldi. Ular ichida amerikalik psixolog L.Termen tomonidan ishlab chiqilgan modifikatsiya alohida ahamiyatga ega. U o'z ishlarida F.Galtonning aqliy qobiliyatini genetik jihatdan shartlanganlik haqidagi nazariyasiga ko'proq murojaat qildi.

Xilma-xil ko'rinishdagi testlar tizimining paydo bo'lishi va qator testlarning ko'p sonli modifikatsiyalarining ishlab chiqilishi natijasida yangi-yangi yo'nalishdagi tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Xuddi shu sababli, XX asrning 20-yillarida testga oid tadqiqotlar butun dunyoga keng tarqaldi, natijada standartlashtirilgan testlar o'quvchilarning qobiliyatlariga asoslangan holda, saralashga katta yordam bera boshladi. XX asr boshlarida "Psixologiya ta'limi" jurnali sahifalarida Amerikaning yirik psixologlari tomonidan uyushtirilgan bahs-munozaralari bosilib chiqildi. Ularning har biridan intellektni tushuntirish va uni tadqiq qilishning eng yaxshi

usuli so`ralganda, bunda deyarli barcha olimlar test tadqiqotlarini eng maqbul usul deb baholadilar, vaholanki, ularning intellekt haqidagi tushunchalari bir-birini inkor qilar edi.

Asrimiz boshlariga kelib, Intellekt tuzilishini aniqlashga ko`p olimlar diqqat etiborlarini haratdilar. Mashhur amerikalik olim Ch.Spirmen (1904) individning xulq-atvoridan kelib chiqqan holda intellektning alla qanday “bosh” omilini ajratib ko`rsatdi hamda uni G omil deb ko`satdi. Uning fikricha, arifmetik masalani echishda, bironta chet tilini o`rganish jarayonida yoki mashina dvigatelini ta'mirlashda odamning miyasi hech qachon bir xilda ishlamaydi. Ayrim kishilarda umumiy intellekt darajasi boshqalarniki bilan teng bo`lishi bilan birga ayrim faoliyat turlarini bajarishda yaqqol ustunlik seziladi. Shu boisdan hamSpirmen G omilga qo`shimcha qilib, S omilni hamkiritadi va uni maxsus qobiliyatning ko`rsatgichi deb aytadi. Spirmenning nazariyasiga binoan, har bir kishi umumiy intellektning muayyan darajasini o`zida xarakterlydi, bu esa uning tashqi muhit bilan bo`lgan munosabatiga bog`liqdir. Spirmenning fikricha, har bir odamda maxsus qobiliyatni rivojlantirishning turli darajalari mavjud bo`lib, ular aniq masalani echish jarayonida ko`rinadi.

Spirmendan boshqa qator olimlar hamintellektning tuzilishini o`rganishga harakat qilganlar. Masalan, amerikalik taniqli psixolog F.Frimen, intellekt oltita tarkibiy qismdan iborat, degan g`oyani olg`a suradi va ularni ko`rsatib o`tishga harakat qiladi.

Sonli operatsiyalarga qobiliyatlilik.

Lug`at boyligi.

Geometrik shakllar orasidagi o`xshashlik

Nutqning tezligi.

Fikrlashga qobiliyatlilik.

Xotira.

Mashhur olim Tyorstoun (1938 yil) esa statistik metodlar yordamida umumiy intellektning xima-xil tomonlarini tadqiq qiladi hamda ularni umumiy qilib, birlamchi aqliy imkoniyatlar deb ataydi va 7 xil imkoniyatlarini farqlab ko`rsatadi:

1.Hisoblash qobiliyati.

2.Og`zaki ma'lumotlarni ixchamlilik (egiluvchanlik), nutq orqali tez o`qish.

3. Og`zaki ma'lumotlarni (idrok) qilish yoki so`zlarini tushunish.

4. Fazoviy operatssiya qilish yoki chamalash qobiliyati.

5. Xotira.

6. Fikrlash (munozaraga) qobiliyatlilik.

7. Idrok qilishning tezligi.

Taniqli psixologlardan R.B.Kettell va J.Xormlar esa intellektni ikkita tarkibiy qismga ajratadilar:

1.Flyuidlashgan intellekt.

2.Kristallashgan intellekt.

Flyuidlashgan intellekt-inson faoliyatining doimiy yo`ldoshi bo`lib, u ilk yoshlik davrida yorqinroq ko`rinadi, keyinchalik so`nib boradi. Flyuidlashgan intellekt tarkibi nasldan-naslga meros bo`lib o`tadi.

“Kristallashgan” intellekt esa hayot davomida, ontogenezda, orttirilgan ko`nikmalardan tashkil topadi

Frantsuz psixologi Sh.Byulerning fikricha, intellekt taraqqiyoti quyidagi bosqichlarga asoslanadi;

a) sinkretizm (tushunchalarni bir-biridan ajrata olmaslik);

b) agglyutinizm (maktab yoshiga yaqin bolalarda fantaziyaning kuchayishi, vaqtni noto`g`ri idrok qilish, har bir obrazlarni yaxlitlashtirish);

v) realizm;

g) xayolot (masalan, ijodiy xayol yordamida insonning o`zi tug`ilib o`sgan Vataniga biror jixatdan yordam berishi).

Fransuz maktabining namoyandalari shaxs paydo bo`lishining dastlabki belgilarini, ularda yuzaga kelgan affektiv imo-ishoralar, verbal ma'no kasb etuvchi holatlar bilan bog`laydilar. Inson shaxsining shakllanishi dastlabki instinklar va shartli reflekslar orqali amalga oshiriladi. Insondagi qoniqish, maroqlanish, ruhlanish kabi ruhiy kechinmalar shaxsning shakllanishini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Frantsuz psixologlarining fikricha, hissiy holatlar insonning intellektual taraqqiyotini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.Ular intellektual taraqqiyotni:

a) spontan (favqulodda paydo bo`luvchi);

b) impulsiv (ichki);

v) imitatsiya (tashqi taqlid) holatlari bilan bog`lab tushuntiradilar.

Shu maktabning yana bir vakili Levi-Bryul insonning intellektual traqqiyoti davrlarini belgilashga harakat qigan, ya'ni:

a) nutqqacha bo`lgan davr;

b) nutq davri;

v) sinzetizm davri;

g) pertsepsiya davri;

d) partsisipatsiya davri;

e) transduktsiya davri.

Shvetsariyalik psixolog Jan Piaje “Intellekt psixologiyasi” asarida intellekt muammosini taqlil qilishda o`ziga xos yo`l tutadi. U intellekt funktsiyalari hamda uning davrlari ta'limotidan

iborat nazariyani ilgari suradi. Uyushqoqlik (tartiblilik) va adaptatsiya (moslashi)ni intellektning asosiy vazifalari hisoblanib, ular intellektning funktsional invariantligi deb ta'kidlaydi. Intellekt faoliyatining tartiblilik deganda sub'ektning intellektual faollik ko'rsatish jarayonida yaxlit holatning va unga kiruvchi boshqa belgilarning, shuningdek, ularni barchasining o'zaro munosabatlarini ajrata olish tushuniladi.

Intellekt hukm surishi muhim tomonlarini ochib berishda J.Piaje "sxema" terminidan ko'pincha foydalanadi. Uningcha, sxema-bu bilish strukturasidan iborat bo'lib, bir-biriga o'xshash xatti-harakatlar ketma-ketligi xususiyati bilan bir guruhga birlashish va yaxlitlik bilan o'zaro puxta aloqani ifodalashni aks ettirishdir.

L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyot masalasiga katta hissa qo'shgan. U masalaning ijtimoiy-tarixiy aspektini ilgari surib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, degan fikrni ifodalaydi. U olg'a surgan psixik funksiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning "tabiiy" shakllini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishini nazarda tutib, "madaniy" shaklini egallash tushuniladi. Uning fikricha, psixik jarayonlarni bevosita ifodalovchi so'z xox tashqi, xox ichki ko'rinishda bo'lmasin, turli xil alomatlar ichida ko'rinarli joy egallaydi. Alomatlarni egallash psixik funksiyalarni sifat jixatdan qayta qurish kerakligini, sifat bo'yicha mutlaqo boshqa, yangi taraqqiyot bosqichi ekanligini bildiradi.

Uning psixologiyaga kiritgan "psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolaning mustaqil faoliyati kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. "Psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasi "ta'lim taraqqiyotidan oldinda boradi" degan umumiy fomulaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imkoniyat yaratadi. E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni aynan bir narsa deb tushuntirishiga qarshi L.S.Vigotskiy ushbu fikrni bildiradi: "Bola taraqqiyoti hech vaqt maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas...".

O'quvchilarning aqliy taraqqiyoti darajasini aniqlashda L.S.Vigotskiy va V.R.Saxarov metodikasi muhimdir. Ular geometrik shakllarni turkumlashdan ushbu metoddan foydalanganlar. Geometrik shakllar silindr, prizma, to'rtburchak, uchburchakdan iborat bo'lib, turli hajmda va har xil rangda ifodalangan. Ular o'zlarining diagnostik metodlarini "sun'iy tushunchalar" ni shakllantirish metodi deb ataganlar. Shakllar fazoda turlicha joylashtirilgan va bir necha qatordan iborat bo'lgan. Ularning balandligi 10 sm va 5 sm bo'lib, "sun'iy tushunchalar" hamda raqamlar bilan alohida belgilab qo'yilgan. Past silindrlar 3 raqam bilan belgilanib, shaklning bir tomoniga "sev" deb yozilgan. Baland silindrlar 3 raqam bilan belgilanib, "lag" deb nomlangan. Balnd qirrali silindrlar 7 raqam bilan belgilanib, "tur" tushunchasidan iborat bo'lgan. Past qirrali

shakllar esa shartli ravishda 8 raqami bilan belgilanib, “bik” “sun’iy tushunchalar”si bilan yuritilgan.

Ularning metodi aqliy taraqqiyotning mezoni rolini o’ynashga imkoniyat yaratib beruvchi turkumlash ustida fikr yuritishni taqozo qiladi. Rus psixologi P.P.Blonskiy ta’limning bola aqliy taraqqiyotidagi roliga alohida e’tibor beradi. Shuning uchun o’quvchilarning aqliy rivojlanishi to’g’ridan-to’g’ri maktab dasturi mazmuniga bog’liqligini ta’kidlaydi.

“Bilimlar tafakkurni yanada umumiy va mavhum qilish bilan bir qatorda uni yanada yaqqollashtiradi. Bu esa tafakkurni yanada intizomli, yanada xatolardan saqlanadigan qiladi” deb tushuntiradi. Ta’limda tafakkurning bir vaqtning o’zida ikki yo’nalishga qarab, ya’ni mavhumdan yanada mavhumroqqa, yaqqoldan yanada yaqqolroq holatga o’sib o’tishini u ko’rsatib o’tadi. Uning fikricha, ta’lim jarayonida bolalar ma’lum qoida asosida ishlashga odatlanadilar. Ta’lim ta’siri natijasida o’quvchilarda o’zining aqliy faoliyatini o’zi nazorat qilish holati yuzaga keladi. O’quvchilarning o’zini-o’zi nazorat qilishi to’rt bosqichda tarkib topadi. Birinchi bosqich o’zini-o’zi nazorat qilishning mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. O’quvchi darsda javob berishga tayyor ekanligini bildiradi, aslida esa u o’zini sinab ko’rmagan va darsni mutloqo o’zlashtirmagan bo’ladi. Ikkinchi bosqichda o’quvchi material sidirg’asiga takrorlash asosida o’zini tekshiradi, shuning uchun bu bosqich o’zini-o’zi to’liq nazorat qilish bosqichi deb ataladi. Uchinchi bosqich “tanlab nazorat qilish bosqichi” deb atalib, unda o’quvchi materialining asosiy qismini idrok qila olishini tekshirgan bo’ladi. So’ngi to’rtinchi bosqichda o’zini o’zi nazorat qilish yana mavjud bo’lmaydi, chunki uning katta o’quv tajribasiga ega bo’lishiga qaramay, natijalarni bir necha asosiy belgilariga qarabgina muloxaza yuritishi ko’zga tashlanadi.

J.Piaje “Intellekt davrlari” ta’limotida uni quyidagi rivojlanish pallalariga ajratadi:

- 1.Sensomotor intellekti (tug’ilgan 2 yoshgacha).
2. Jarayonlardan ilgarigi tafakkur davri (2yoshdan 11 yoshgacha).
3. Aniq operatsiyalar davri (7-8 yoshdan 11-12yoshgacha).
- 4.Rasmiy (formal) operatsiyalar davri.

U intellektning o’sishi, bolada nutq paydo bo’lishidan ilgari boshlanadi, deb hisoblaydi. Intellektning dastlabki ko’rinishlari bolaning ilk tartibsiz xatti-harakatlarida o’z ifodasini topadi. Keyinchalik maqsadga yo’naltirilgan harakatlar aktini amalga oshirish natijasida va taqlil qilish yordamida intellektning genetik ildizini o’rganishga imkoniyat yaratiladi.

Rasmiy operatsiyalar davrida tavsif berilganda esa, predmetlar bilan tobora aloqa yo’qola borishi qayd qilinadi. Intellektning o’sishi inson operatsiyalar tizimi bilan qurollanishdan iborat ekanligi aytib o’tiladi.

Intellekt muammosini yoritishga Amerika psixologlari ham jiddiy ravishda yondashishgan. Biroq bu muammoni hal etishda ular boshqacharoq yo'l tutishadi, ya'ni asosan intellektning quyidagilarga bog'liqligi ta'kidlanadi:

- a) yoshga;
- b) jinsga, dunyoga kelish tartibiga;
- v) etnos, millat, ellatlarga;
- g) oilaning ijtimoiy-iqtisodiy statusiga;
- d) ota-onalarning ma'lumotlilikiga.

Intellekt muammosi chet el psixologiyasida juda keng o'rganilgan bo'lib, ushbu tadqiqotimizda ularning ayrimlari ustida to'xtalib o'tdik.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning aqliy taraqqiyotining shakllanishida bilish jarayonlarining o'rni.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish va barkamol insonni shakllantirish, ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Hayotga ziyrak ko'z bilan qaraydigan, teran fikrlovchi, mustaqil dunyoqarashga ega iqtidorli shaxslarni kamol toptirish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun biz boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlovchi aqliy jihatdan kamol toptirish lozimligini o'rganishga ahamiyat qaratdik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari 6-10 yoshli bo'lgan (I-IV) sinflarning o'quvchilari kiradi. Bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotganda tayyorlanadi. Talabalar bilan tanishadi. Bunda u maktabda o'quvchilarga quyiladigan xar xil talabalar bilan tanishadi. Fon, asoslarini o'rganish uchun biologich va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi.

Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda bolaning obektiv va subektiv jihatdan maktab talabiga ta'limiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta'limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sog'ligi, aniqligi, o'zining qiziquvchanligi, diqqatlashligi, xayrixoxoligi, ishonuvchiligi, xayolning yaqqolliigi, tafakkurining yaqqolliigi, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yorqinligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolaga diqqat nisbatan uzoq muddati va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda rasm chizish va qurish- yashash mashg'ulotlarida loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda matematik amallarni yeshichda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Bola o'z diqqatini muayyan obyektga yo'naltirish, to'plash taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-

qarayib kishini tajjubga soladi gap ma'lumot va xodisalarni puxta esa olib qolish esda saqlash esga turush imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotni o'zlashtirib kelgan bo'lsa endi o'z xoxish –irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qilinadi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U she'r hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko'p takrorlash yod, olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanish ta'lim. Jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi aksincha ta'lim so'z-mantiq xotirasini taqozo etadi. So'z – mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosi tushunib esda olib qo'lish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma'lumki, bola ma'nosiz so'zlardan ko'ra manodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta'limga tayyorgarlik bosqichiga kattalar bilan muloqotda kirishish kishilarning fikrini uqib olish va to'g'ri idrok qilish, darajasida, nutqining tuzilishi esa gramatika qoidalariga mos mantiqdan izchil ifodali miqdor va ko'lam jihatdan fikr almashinish yetarli bo'ladi. U eshitgan va ko'rganlari to'g'risi dagi ma'lumotlarni tushuna oladi. Ozidagi axbrotlarni muayyan tartibda bayon qila oladi, aqliy saloyihat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi. (ularni taqqoslaydi oydinlashtiradi guruhlarga ajratadi, umumlashtiradi xukm va xulosa chiqarishga xarakat qiladi).

Yirik psixologlarning tadqiqotlari oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdai bolalarning taffakurini jadal rivojlantiradi. Masalan: ular lingviztika, fizika matematikaga doir ilmiy tushunchalarni o'zlashtiradilar, soddaroq masalalar tuzadilar, o'zlashtiradilar, soddaroq engil mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va maxsuldor fikr yuritishga intiladilar.

Olti yoshli bolaning psixik tayyorgarligi to'g'risida gapirilganda ko'pincha muayyan reja asosida tartibli ko'p qirrali maqsadga yo'naltirilgan o'zaro mantiqiy bog'liq, izchil boshlang'ich ta'limga zamin vazifasi o'tovchi psixik o'sish darajasini nazarda tutamiz. Shuningdek ta'lim uning psixik o'sish darajasidan tashqari, bola turmushi va faoliyatining tavofutlari sharoitlari o'ziga xosligi, uning sixat –salomatligi uslubiy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko'nikmalarning o'zlashtirgani kabi omillarni xisobga olish maqsadiga muvofiqdir. Yuqorida aytilganlarning hammasi bolaning maktab ta'limiga psixologik jihatdan tayyorgarligining obyektiv tomonlarini ifodalaydi.

Bola maktab ta'limiga psixologik tayyorlanishning sub'yektiv tomoni xam muvjudir. Uning makabga o'qish hohishi intilishi, kata yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog'liqdir. Bolada shu davrga kelib, o'qish bilim olish, haqida

to'g'ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi azolarining masuliyati vazifalarini anqlaydi va ularga itoat qilishiga ularning ko'rsatmalarini boshqarishga moyil bo'ladi. Lekin bolalar hammasi bir xil emasligi sababli ular o'rasida muhim farqlar vujudga keladi. Ba'zi bola maktanga butun vujudi bilan talpinadi. O'qishga qancha qolganini uzluksiz sanaydi. O'quv ashyolarini oldinroq tayyorlab qo'yishga xarakat qiladi. Boshqa bir bola esa maktabdan qat'iy, voz kechishgacha borib yetadi. O'qishga salbiy munosabat ko'pincha kattalarning qo'rqitishlari oqibatida vujudga keladi. Shunigdek aka va opalarning maktadagi qiyin kechinma va vaziyatlar to'g'risidagi gaplar yuda bolalarni ko'proq dars tayyolashga majbur qilish xam o'qishga salbiy munosabat uyg'otadi. O'qishga salbiy munosabatdagi bolalar ta'lim muxitida kirishga qiynaladilar.

Maktabda ta'lim tarbiya ishlarini tashkil qilishda boshlang'ich sinf bolalrning anamotik fiziologik xususiyatlari jismoniy kamolot darajasini xisobga olish muvaffaqiyat qarovidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi biologich jihatdan nisbatan uyg'un o'sadi. Uning bo'yi va og'irligi o'pkasining xajmi mutanosib rivojlanadi. Biroq bolaning suyaklari ko'krak qafasi , tos, qo'l suyaklari umurtqa pog'onasida xali tag'aysimon to'qmolar uchraydi. Bu esa uning suyak takomillashib bo'lmaganini ko'rsatadi. Yurak muskullari tez o'sadi qon tomirlarining deamtri sal kattaroq bo'ladi. Miyaning og'irligi boshlangich sinflarda 1250-1400 grammni tashkil etadi. Miya po'stining anamotik -sintetik faoliyati takomilashadi qo'zg'alish bilan tormozlanish o'rtasidagi munosabat o'zgaradi, lekin qo'zg'alish nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Shuning uchun bolaning to'g'ri oshishiga g'amxo'rlik ilish toliqishining oldini olish, o'qish va dam o'tish rejimga qat'iy rioya etish zarur .

Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini ijtimoiy mavjudini , sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolini o'zgartiradi, uning asosiy vazifasi o'qishdan bilim olish ko'nikma va malakalarini egallash tabiat va jamiyat tog'risda qonuniyatlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Ta'lim muayyan darajada shoshqoqlik intilish, idoraviy zo'r berish faollik va maqsadga muvofiq faoliyatni talab iladi. Ixtiyorsiz xatti-xarakat o'rnini aniqlashilgan , rejali, aqliy mehnat egallay boshlaydi. O'quvchi doimo tengdoshlari bilan birga muayyan sinf jamoasida bo'ladi. Demak uning oldida hamma vaqt sinf jamoasining manfaatini ximoya qilish shaxsiy, istaklarini umumjamoa intilishiga bo'ysundirish o'zaro yordam o'zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch masalalarini egallash vazifasi turadi. Ta'lim jarayonida esa o'quvchi oldida qo'yiladigan talablar toboro ko'payib va murakkablashib boraveradi.

O'qishning dastlabki kunidanoq kichik maktab yoshdagi bolaning o'shishini qarama-qarshiliklar ichki ixtiloqlar vujudga keladi. Ana shular zahirida bolodagi psixik kamolotning darajasi va ijobiy xislatlar bilan talablar o'rtasidagi qarama qarshiliklar yotadi. Talablarning

tobora ortishi bolaning psixik jihatdan to'xtovsiz o'shishi toqazo va shu berk zanjirning uzluksiz harakati natijasida insonning kamoloti amalga oshadi.

Boshlang'ich sinfbolaning muhim xususiyatlardan biri unda o'ziga xos ehtiyojlar o'z mohiyati bilan muayyan bilim ko'nikma atrofidagi voqealikni o'zlashtirishga qaratilmay, balki faqat o'quvchilik istagini aks ettirishdan iboratdir. Shu ehtiyojlar o'z so'mka qo'yish javonida ega bo'lish istagi kattalardek har kuni maktabga qatnashish tuyg'usi yotadi xolos. Bundan tashqari bilimlar, kunidagi shodiyona ayyom, o'quvchilik safiga qabul payti, maktab ma'muriyati va o'qituvchilarning unga bildirgan samiyimiy tilaklar yuqori sinf o'quvchilarining tabriklari bolaning xis-tuyg'usiga ijobiy- ta'sir etadi. Sinfdagi o'rtoqlari bilan qatorlashib saf tortib yurishlar, birgalashib o'ynash oshxonaga boorish o'quvchilarning og'itlari xam bolani o'ziga rom etadi. Umuman boshlang'ich sinf bolalar o'qishning tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi. Balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Ammo u kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi.

Oradan ma'lum vaqt o'tgach shodiyona lahzalarning ta'suroti namoyishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yoqota boradi va o'qishning kundalik qatiy mehnat irodaviy zo'r berish yoqtirmagan narsa bilan shug'ullanish diqqatini taqsimlash o'z xulqini idora qilish ekanligini aniqlaydi. Shunday aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik xissi vujudga keladi. O'qituvchi esa bunday holatni oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi qiziqarliligi haiqda ma'lumotlar berish va uni shu faoliyatga tayyorlash kerak.

Birinchi sinf o'quvchisida o'qish faoliyatining aynan o'ziga qiziqish ko'zga tashlanadi. Maxsus tadqiqotlar bolalar bilan keraksiz mashqlar o'tkazilgan va ularga oldindan bu mashqlar keyinchalik keak bo'lmasligi aytilgan, lekin bolalar ularni bajonidil bajarishga kirishganlar o'quvchi shaxsiy faoliyatidagi birinchi mehnat maxsuli shodlik va quvonch xis-tuyg'u yoki bu matnni bir necha marta o'qishga harakat qiladi. O'qish faoliyatiga qiziqish uning mazmuniga ham qiziqishini vujudga keltiradi. Bilim olish ehtiyojini tug'diradi va o'qish motivlarini tarkib topadi.

Ta'limning mazmuniga bilimni egallashga qiziqish o'quvchilarning o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish xissi bilan uzviy boqliqdir. Bu xis o'qituvchining rag'batlantirishi bilan namoyon bo'ladi. Va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli eslatadi, ishtiyoji shakllantiradi Bolada paydo bo'lgan faxrlanish va malakalarni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Raqobatlashtirish va jazolash meyorida bo'lsgina, ularning tarbiyaviy ta'siri ortadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini baxolash unda o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki maktablarda bolalarni og'zaki baholash odat tusiga kirib qolgan chunki birinchi sinf o'quvchisi ana shu baho ta'sirida o'z faoliyatini kuchaytiradi. Ijodiy izlanishga harakat qiladi. Xatto o'quvchi dastlabki paytlarda "yaxshi" yoki "yomon" bahoning farqiga ham bormaydi. Ko'proq nechta baho olgani qiziqtiradi. O'qituvchining rag'batlantirishi uning uchun eng muhim rol o'ynaydi.

Ko'pchilik mutaxassis olimlar boshlang'ich sinfidagi o'quvchilarni baxolash salbiya oqibatlariga olib keladi, deb hisonblamoqdalar. Ma'lumki faqat baxo uchun o'qish bilimning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirishi mumkin. Shunga ko'ra bilimini tekshirisning boshqa usullarini topish hamda qo'llash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Negaki baxolashning bola kamoloti uchun ahamiyatini mutloqo inkor qilish ham tog'ri emas. Bundan maslahat yo'llanma tavsiya ko'rsatma sifatida foydalanish ma'qul.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning muhi xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchi shaxsiga ishonch xissi va yuksak ehtiromdir. Shuning uchun ham o'quvchilarning bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir.

Bola o'qituvchini aqli idrok soxibi, ziyrak sezgir mehribon hatto donishmand inson deb biladi. O'qituvchi siymosida o'zining ezgu niyati orzu istagi ajoyib, xis-tuyg'ularini ruyobga chiqaruvchi ma'tabar shaxsni ko'radi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar oilaning boshqa a'zolari, qarindosh –urug'lari tanish-bilishlarning nufuzi keskin pasayadi. Shu sababli bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar.

Bola psixik jihatdan o'shishi natijasida uning o'qituvchi mavzusiga munosabati o'zgaradi chunki unda ongli xatti-harakat ehtiyoji tug'iladi.

O'quvchida bir talay muammolar savollar vujudga keladi. U hayotda hamma narsa o'zi o'ylagandek oson emasligini tushuna boshlaydi. Mazkur savollarga shaxsan o'zi javob topishga intiladi. Shu savollarni boshqa odamlarga ham beradi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'zining obrasidan oqilona va bilan foydalanib o'quvchilarga uyushqoqlik mehnatsevarlik o'qishga ijobiy munosabat o'z diqqatini boshqarish xulqini idora etish o'zini tuta bilish qiyinchiliklarni yengish kabi fazilatlarni shakllantirishi lozim. Buning uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish usulini qo'llash kerak. Maqsadga muvofiq o'qish faoliyati boshlang'ich sinf o'quvchiarning aql-idroki sezgirligini kuzatuv changligi uquvliligi esda olib qolish esga tushiirish imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, bolalarda o'qish, yozish hisoblash malakalarini shakllantiradi. Bundan tashqari mazkur ta'lim jarayonida ularning bilimlari ko'lami kengayadi bilishga qiziqishlari ortadi. Ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi ularda taffakurning faolligi mustaqilligi maxsuldorligi ortadi. Aqliy imkoniyatni ishga olish vujudga keladi. O'quv fanlarga ijobiy

munosabat qat'iy sug'ullanish hiyati jamoatchilik oldida ma'suliyati xis qilish, bilim olishning ijtimoiy ahamiyati anglash tuyg'ulari tarkib topadi.

Quyida mazkur yoshdagi o'quvchilardagi sezgi, idrok, xotira tafakkur kabi bilish jarayonlarning xususiyatlari va rivojlanishi tog'risida qishqacha to'xtayman.

Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarning aniqligi rovonligi sofliги o'tkirligi bilan boshqa yosh davridagi insonlardan keskin farqlanadi. Ular har bir narsaga berilib, ota sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning sababini ularning oily nerv faoliyatida birinchi saignal sistemasi ustunligi bilan izohlash mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchisi har qanday obekt subyekt va voqealikdagi yangilikni yaqqol idrok qilishga intiladi. Uni atrof muhitning sirli olamini sexrli jozibasi o'ziga tortadi. Lekin ta'limning dastlabki boshqichida idrokning ayrim zaif tomonlari ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinfidagi o'quvchilar idrokining salbiy hususiyati obektlarni bir- biridan farqlashdagi ulap kopincha o'rganiladigan matepialni noaniq ,hatto, noto'g'ri idrok qiladilar buning oqibatida aynan o'xshash harflar so'zlar narsalar tasviri , shakli fazoviy joylashuvning farqini to'la tasavvur qila olmaydilar. Masalan "g" bilan "k" xarflarni "o'qish" bilan "uqish" so'zlarini aylana bilan "to'g'ri chiziq" alomatlarini bir-biridan farqlamaydilar. Ba'zan esa ular kattalarning idrok ko'lamini qamrab olmaydigan narsalarni payqamaydilar.

Bolalarda tartibli maqsadga muvofiq serqirra tahlil qilish faoliyati uchun ular ta'lim jarayonida ko'pincha xatoga yo'l qo'yadilar. Odatda zarur va muhim alomatlar bir yoqda qolib, tasadifiy belgilarga e'tibor beradilar. Psixolog N. F Davrinin tasviriyl san'at darsida o'quvchilarga rangli qilib ishlangan olmaxonning rasmini ko'rsatgan, so'ng uni chizishni tavsiya qilgan. Surat olib qo'yilgandan keyin bolalarga olmaxonning mo'ylov ko'zi mo'ynasining rangi to'g'risida qator savollar paydo bo'lgan.

Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki boshlang'ich sinf aniq idrok qilish imkoniyati juda chegaralangandir.

Mazkur yoshdagi o'quvchining idroki o'zining xatti harakati o'yin va mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Qandaydir narsani idrok etish o'sha narsa bilan mashg'ul bo'lishini. Anglatib keladi. O'quvchi o'zining ehtiyoji mayli qiziqish intilishi va turmush faoliyatiga mos, shuningdek, o'qituvchi tavsiya etgan. Savollar tug'iladi. Bolalarning vaqti idrok qilish ham tor ma'nodagi tushunchalardan iborat bo'ladi va ular asr eramizdan avvalgi davr kabi atamalarni nimaligini tushunmaydilar.

Harakat deganda bola ko'pincha jismoniy mexanik harakatini nazarda tutadi, lekin uning biologik ijtimoiy kimyoviy xarakatlarni bilishi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Bola hatto samolyot qush, reketa va o'qing tezligini ham noto'g'ri idrok qiladi. Masalan u – doirasida qirilib bitgan bayahbat kaltakesaklar haqidagi ma'lumiotni eshitgan bo'lsa, uyda kelib buvisidan uni ko'rgan yoki ko'rsatmaganligi so'raydi. Ta'lim jarayonida va kattalarning yordami bilan turmush tajribasining o'rtishi tufayli bolalarda jazo vaqt va harakatni idrok qilish ko'lami kengayadi. Ular vujudga kelgan savollarga javob to'pa beradilar. Bundan tashqari ularning nazariy bilimlari amaliy faoliyatda sinab ko'rish orqali ham boyib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda diqqatni irodaviy zo'r berish bilan boshqarish va favqulotda moslash imkoniyati yaxshi bo'lmaydi. Buning asosiy sababi ularda ixtiyoriy diqqatning kuchsizligi va beqarorligidir. Shu bilan birga boshlang'ich sinf bolalarning ixtiyorli ongli diqqati o'qish motivlari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Odatda ularning o'qish motivlarning uzoqni ko'zlagan va maqsad bilan bog'liq motivlarga ajratiladi. Yuqori motivlari uzoqni ko'zlagan motivlarga kirsam, boshlang'ich sinf o'quvchilarning motivlari voqelikka va realikka bog'liq motivlardir.

Tajribadan ma'lumki bolarga extiyorsizlik diqqat durustgina rivojlangan bo'ladi. Chunki ta'lim jarayonida ixtiyorsiz diqqatining o'sishi uchun muhim shart-sharoitlar mavjuddir. Boshlang'ich sinf o'quv materiallarning yaqqolliги yorqinligi jozibadorligi o'quvchida beixtiyor his-tuyg'ular uyg'ota oladi. Irodaviy zo'riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O'quv materiallaining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatining to'planishi markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Boshlang'ich sinf bolalarni o'qitishga ko'rsatmalilikdan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o'zlashtirishga uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to'sqinlik qiladi. Ularga ko'rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo'lishi ham mumkin. Sun'iy to'siqlar halol beruvchi alomatlardan qutilish uchun yaqqol va mavhum materiallardan aralash holda foydalanish yaxshi natija beradi. Bolaning ko'rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiradi. Bola tashqi belgilarga e'tibor berishga odatlanib, ichki muhim belgilardan chetlasha boradi.

Ma'lumki ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqish bilan bevosita bog'lanib ketsa, tabiiyki ular faqat maroqli quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo'lib qoladilar. Natijada o'ta nozik ya'ni tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustahkamlanadi. Odatlanish murakkab o'quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun K. D Ushkinskiy bolani faqat o'zini qiziqtirgan narsa bilan emas balki uni qiziqtirmagan narsa bilan ham mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog'lanishlarga ahamiyat bermay ma'nosida tushunmay quruq eslab

qo'ladilar. O'rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay yoddaki o'zlashtiradilar buning sabablari

1) ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani, ma'lumotlarni aynan o'zgarishsiz eslab qolish imkoniyatini yaratadi.

2) O'quvchilar o'qituvchi qo'ygon vazifani anglab yetmaydilar natijada uning to'g'ri tushuntirib ber degan talabini so'zma-so'z takrorlash deb biladilar

3) ularning nutq boyligi etishmasligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to'ldirish unga qo'shimcha qilish imkoniyati yo'qligi uni soz'ma-so'z qaytarishni osonlashtiradi.

4) O'quvchilar matni to'g'ri usullar yordamida eslab qo'lishni bilmaydilar A.A Smirnov eslab qolishning tog'ri usuli sifatida matndagi ma'nodosh soz'lardan guruhlariga ajratish , tayanch nuqtani toppish, soz'lab berish uchun reja tuzish va o'tilgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya mohiyatini turli mulohazalarni dalillarni ilmiy asoslarini eslab qolish va esga tushirish orqlai o'quvchialarda mantiqiy xotira takomillashadi. Ularni A.A Smirnov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollanadi. Aqliy mehnatda mustaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o'stirish mumkin emas. Shuning uchun boalarga izohli oq'ish masalaning shartini sharxlash muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishni o'rgaish muhim ahamiyatga ega. Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushirishning mahsuldorligi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq . Aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishni tashkil qilish va boshqarish usullarini egallashiga uzviy aloqadordir. Mnemik xotira usullarga ta'rif yoki qoidani so'zma-so'z eslab qo'lish birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish raqamlarni bir joyda to'plash, eng zarur tushunchalarga alohida e'tibor qiladi. Eslab qolish , esda saqlash esga tushirishning samaradorligi maqsadni aniqlash va unga intilish negizida vujudga keladi. Xotaraning samaradorligi o'qish motivlariga bevosita bog'liqdir T.N Bajovich o'z tajribasida bir guruh o'quvchilarga o'quv matnini bundan keyin sira kerak bo'lmasligini , ikkinchi guruhga undan tez kunda foydalanilishini aytib o'zlashtirishni tavsiya qilgan.

Olingan natijalarga ko'ra birinchi faoliyatda qo'llash ustanovkasi yuqori samara bergan matn, tez eslab qolingani va uzoq vaqt esda saqlangan I.V Zankovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishning roli o'rganilgan uzoq, vaqt eslab qolishga intilish ham yaxshi samara berishi isbotlangan shunga asoslanib psixologiya faniga uzoq “ vaqt eslab qolish” , “hamma vaqt esda saqlash” iboralari kiritilgan.

Umuman kattalarning xususan o'qituvchining muhim vazifalardan biri o'quvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni tarkib topishi ularga eslab qolishning usullarini fikr yuritish jarayonlari taqqoslash tahlil qilishni o'rgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish materaini takrorlashda tekshirish esga tushirish mashq qilishdan unumli foydalanish zarur .Agar kchik maktab yoshda o'quvchilaga eslab qolish va eslash usullari o'rgatilmasa ular materiallarni bevosita takrorlashdagi uzoq vaqt to'xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat (Q D Ushinskiy0 hisoblanadi. Lekin o'quvchilar materiallarni eslashni xush ko'rmaydilar. Mateiallarni eslab qo'lish esda, saqlash , esga tushirish va eslash usullarini o'rgatish mantiqiy xotira o'sishining garovidir.

Boshlang'ich sinfo'quvchining hayoli o'z o'quv faoliyatning ta'siri talabi imkoniyat va shart –sharoitlari orqali tarkib topadi.

Bolaning hayoli tevarak-atrof taasurotlari dunyo ajoyibotlari ko'rsatmalilik, tasviriy san'at asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, sur'atlar chizmalar shartli belgilar noma'lum narsalarning alomatlari tabiat manzaralari fazoviy tasavvurlar jamlanib o'quvchilarning hayoli paydo bo'ladi. Tanish obrazlar yaratish bilan uzviy bog'liq bo'lgan tiklovchi hayol bolaning ruhiy dunyodagi alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida bolalarning yorqin aniq, tiniq yaqqol, tasavvur obrazlar hayol yordamida muayyan voqealikka aylanadi. Organilayotgan fan materiallar eshitilgan obrazlar tartibga solinadi , yaxlit obrazlar tizimi yaratiladi. O'qish davomida turmush tajribasida to'plangan tassurotlarni qayta tiklash ularni, o'zaro birlashgan holatda izlanishning eng muhim omili ijodiy hayolni takomillashtiradi. Ijodiy hayolning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliqi mantiqiy qonunlarga uzviy bog'liqligi g'ayri tabiiy ajoyib- g'aroyib istaklardan uzoqligidir.

Shuning uchun o'quvchi xayolida turmushga voqealikka zid kelmaydigan tasvirlar timsollar ko'lamini tobora kengayadi. Bu esa o'quvchida hodisalarni tanqidiy baholash ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada uning hayoli tasurot qurshovidan bo'shaydi, yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlarga suyangan holda baxolash ko'nikma yanada takomillashadi.

Boshlang'ich sinf yoshdagi o'quvchilar hayolningning xususiyatlaridan yana biri hayotiy voqealik bilan hayotning o'zaro aralashib ketishidir . Ma'lumki o'quvchi yaqqol voqealik yoki hodisasi o'zi yaratgan qo'shimcha obrazlar, tafsilotlar bilan boyitib boshqalarning diqqat – e'tboriga uzatadi. Bu uning yo'lg'onchiligi emas, balki hayolning xususiyatidir. Ayrim bolalar haqorat bilan hayolning aralash holatiga chindan ham ishonadilar , unda soddalik bilan ishonuvchanlik uzviy bog'lanib ketgan bo'ladi. Ba'zi hollarda mazkur yoshdagi o'quvchi boshqalarning diqqatini o'z axborotiga qo'shish madsadida ham unumli foydalanadi . Bunday holat birinchidan bola o'zining sinfdagi o'rtoqlari orasida yoki oilada allaqanday kamsitilganda , ikkinchidan kattalar ko'z o'ngida o'zini uddaburon qilib ko'rsatish

istagi tug'ilganda , uchinchidan haqiqiy ijodiy obrazlar yaratish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq o'quvchilar hayolparastlikka berilishning oldini olishga pedagoglar umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar tafakkurining xususiyatlarini o'rgangan olimlar bolaning tafakkurni quyidagi uch yo'nalishda tadqiq qilganlar. Tafakkurning yosh davriga xos xususiyati uning rivojlanish tushunchalarni shakllantirish omillari.

Bolalar narsalarning o'zgarmaydigan ba'zi belgilari doimiyligi payqay olmasligi ulardagi tafakkurlarning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Buni J. Piaje o'z tajribasidan biridir. Unda 7-8 yoshli bolalarga ikkita bir hil hajmdagi hamirdan ularning ko'z oldida shu hamirlardan biridan kulcha yasalsa , hamirning miqdori bir xil bo'lmay qoladi, degan xulosa chiqanganlar Ma'lumki ta'limning dastlabki bosqichida bolaning umumlashtirish juda soda bo'ladi va faqat o'xshashlik belgisiga asoslanadi. Keyinchalik esa, bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini asoslanadi. Keyinchalik esa bola narsa va hodisalarning tashqi sifat va xususiyati belgilarini ajratish va tasniflashga , narsa va hodisalarning xossalari qonuniyatlarining murakkab ichki bog'linish va munosabatlarning muhim belgilari bo'yicha umumlashtirishga o'tadi.

Birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari o'quv faoliyatlarini buyumlarning jozibador tashqi belgilariga tayanib tashkil qiladilar. Quyosh momaqaldiroq sigir, avtomobil qush va hokazolar tog'risida fikr yurtishga "quyosh isitadi" yoritadi "momaqaldiroq guldirdi" "sigir sut beradi", "avtomobil yuk tashiydi" "qush sayraydi" kabi hukmlar chiqaradilar, shuning uchun agar o'rganilayogan materiallarning muhim belgi va alomatlarini bevosita aniqlash zarurrati tug'lsa darrov ko'rinadigan misolga murojat qiladilar. R.G Natadzening tajribasida boshlang'ich sinf imkoniyati yo'qligi ma'lum bo'lgan va ular ikkilovchini ham baliq deb ataganlar. Bu hol umumlashtirib ko'zga tashlanuvchi tashqi belgi va alomatlariga qarab amalgam oshirishni istaydi.

O'quvchilari ichunchi sinfga o'tganidan so'ng umumlashtirishda moddiy dunyodagi voqelikning eng muhim munosabat va bog'lanishlarini aks etuvchi ichki belgilariga tayanadilar. Jumladan suv, havo metal va boshqa narsalarning issiqdan kengayishini umumiy muhim alomatiga asoslanib umumlashtira oladilar. Bundan tashqari o'simliklar dunyosi ularning rivojlanishi ko'payishi, chonqlanishi kabi belgilarga tayanib "jonli tabiat" iborasini ataydilar. Bolalarning mulohazalaridan "paxta dalada" o'sadi, uni paxtakorlar yetishtiradilar zavodda tozalanadi so'ng fabrikada to'qiladi. Kiyim-kechak tayyorlanadi (2-sinf o'quvchisi) "Bodom daraxti issiq iqlimli" o'lkalarga osadi (1-sinf o'quvchisi) "tulki yovvoyi yirtqich hayvon u o'rmonda yashaydi.

Jonivorlarni turib yeb tiirkchilik qiladi. Mo'ynasi qimmatbaho shuning uchun ovchilar uni ovlaydilar. Unig mo'ynasidan palto yoqalar telpak , po'stin tikiladi. (3-sinf o'quvchisi)

Bolalarning mulohazalaridan ko'rinib turibdiki, ularda muhim belgilar miqdori yetarli darajada emas. Ular o'simliklarni tariflaganlarda faqat daraxtlarning qaysi turga mansubligi qayerlarda o'sishi inson va hayvonlar uchun qanchalik foydalangani ta'kidlaydilar. Hayvonlar to'g'risida mulohaza yuritganlarda ham birmuncha kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Masalan birlamchi xususiyatlar va hossalarga e'tibor bermaydilar. Boshlang'ich sinfo'quvchilar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishda oldingi darslarda o'zlashtirilgan turli alomatlar belgilar kashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi. Ko'p tushunchalarni chunonchi baland – past, uzoq, yaqin, kam-ko'p va hokazolarni avval voqealikdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi fazoviy munosabatlarni bevosita idrok qilish asosida o'zlashtiradilar . Keyinroq esa, umumlashtirish jarayoni son tushunchasida ifodalangan bilimning miqdori munosabatiga asoslana boshlaydi. Shu sababdan ularga fazoviy munosabatlar haqidagi tushunchalarni o'zlashtirish juda qiyindir. Birinchi va ikkicha sinf o'quvchilari uzunlik o'lchovibirliklarini o'zlashtirishda ham qiynaladilar, chunki ular uzunlik o'lchovining asosiy belgisi- uning uzunligini ajratishni bilmaydilar. Ko'p hollarda bolalar “metr” “kilometr” tushunchalarini buymning shakli bilan tasavvur etishga harakat qiladilar. Uchunchi sinfga o'tganlaridan keyin murakkab fazoviy munosabatlarni egallashga kuchlari yetadi. Chunki ta'lim jarayonida ularning fazo to'g'risidagi tasavvurlari, tushunchalari kun sayin plan, mashtab, yer shari va qator shartli belgilar haqidagi bilimlar bilan boyib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari “vaqt” tushunchasi bilan tanishadi lekin kundalik hayot tajribasi dosirasidan chiqmaydi. Uchunchi sinf o'quvchilarida tarixiy ma'lumotlar xabarlar, axborotlarni o'qish va eshitish tufayli “soat”, “yil” “o'n ming yilalr burun”, “eramizdan” oldingi uchunchi asr “yerda hayotining” paydo bo'lishi” kabi tushunchalar shakllana boshlaydi. Lekin ularda ham katta vaqt o'lchovi miqdorini kichik vaqt miqdorida o'tgan zamonni hozirgi zamonga almashtirib yuborish hollari tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun ikki xil tarixiy voqea to'g'risida fikr yuritishda sanadagi tavovutni “sal undan keyin yoki sal ilgariroq” deya izohladilar. Xolos.

O'quvchilarning bilim, doirasi kengaygani sayin ular qat'iy hukmdordan taxminiy hukmlararo ko'cha boshlaydilar. Ya'ni narsa va hodisalarning turli xususiyatlarga egaligini , voqealik atigi bir harakatdan bir sababdan emas, balki ko'p sabablardan paydo bo'lishligini aniqlash boshqichiga ko'trariladilar. Taxminiy xukmlar ikkinchi sinfdan boshlab, namoyon bo'ladi. O'quvchilar “Nega bugun falnchi darsga ko'rinmaydi , balki kasal bo'lib qolgandir”

uxlab qolgandir. Dars tayyorlab almay uyaganidan kelmagandir. Deb gumonsirab taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar, natijada taxminiy mulohazalar yurita boshlaydilar.

Uchinchi sinfdan boshlab turli vaziyatlarni holatlarni aniq dalillar bilan isbotlab berishga o'tadilar. Buning sababi bolalarning bilimi kundan-kunga osha borishi ma'lum tuzim hosil qilishdir. Ular bu paytda o'z hukmining chin yoki chin emasligining aniqlab yetadilar. Bevosita muhokama qilish dalil keltirish isbotlashning shartlariga asoslanib fikr yuritish jarayoniga o'ta boshlaydilar. Bolalar narsa va hodisalarning paydo bo'lishi sabablarini aniqlashda muammo masala va savolarni qo'yishdan tashqari ularni hal qilishga yechishga ham odatlanadilar.

Biroq ularning hukmi moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning ichki qonuniyatlarini ob'ektiv bog'lanishlari va munosabatlarini to'liq ifodalay olmaydi.

Uchinchi sinfdan boshlab o'quvchiarga tushuncha va hukmlar rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodidalar haqida yuritilgan muhokamalar asosida xulosa chiqarish ham o'zgarib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida induktiv didaktik xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa chiqarish avval bevosita idrok qilinayotgan narsalar asosida vujudga keladi. U bevosita kuzatish, idrok idrok qilish jarayonida narsa va hodisalarning munosabarni bog'lanishini aks ettiradigan xulosa chiqarish, bo'lib bo'laning tafakkuriga tayanib xulosa chiqariladi. Keyinchalik mavhum shart-sharoitlardan vujudga keladigan xulosa chiqarish turi paydo bo'ladi.

Ko'satmalilik sxemalar chizmalar tanish misol va masalalar hodisalarga asoslanishda ko'rinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun sabab natija munosabatlarini ifodalovchi narsa va hodisalarni ta'riflash juda murakkabdir. M.N. Shardokovning tajribasida uchinchi sinf o'quvchilari jismlarning kengayishi isitishga bog'liqligini anglab yetmaganlar va barcha jismlar issiqdan kengayadi, deb xulosa chiqara olmaganlar. Umumiy xulosasini esa eksperimentator yordamida chiqarganlar.

Ta'lim jarayonida tafakkurning kundalik sistetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. O'quvchi tahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsasi bo'laklarga ajratib, ularning uzviy boglanishni aniqlayotgan sintezda esa. Buning aksini bajaradi, ya'ni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishning aniqlaydi.

O'quvchilar tahlil va sintezni taqqoslagani mashq qilish orqali narsa tasodifiy belgilardan ajratishni o'rganadilar va shu tariqa o'zlarining mavxumlashtirish faoliyatlarini takomillashtiradilar.

Bolalarning bilimlar tizimini o'zlashtirishga tushunchalarni qonuniyatini noma'lum belgisiga binoan o'rganishlari tez-tez uchrab turadi va bu xol o'quv materiallarini o'zlashtirishi qiyinlashtiradi. Shuning uchun o'quvchilarga tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish lozim.

Boshlan'ich sinf o'quvchilarning umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida amalgam oshirilgan taqdiddotlardan o'zlari mustaqil ravishda narsalarni muhim belgilalriga asosan umumlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularda mahaliy tushunchalar ataalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi.

Boshlang'ich sinflardagi ta'lim jarayonida ba'zan hissiy- yaqqol yoki empirik umumlashtirish imoniyatiga ega bo'ladilar, Ularda mahaliy tushunchalar atamalar, tushunchalar miqdori keskin kamayadi.

Boshlang'ich sinflardagi ta'lim jarayonida ba'zan hissiy- yaqqol yoki empirik umumlashtirish usuli qo'llanadi va bu ish albatta topshiriqning talabiga binoan amalga oshiriladi. Narsa va hodisalarni guruhlariga ajratish va tasniflash lozim bo'lib qolsa, ko'pincha shu usullardan ham foydalanish tavsiya qilinadi.

Bayon etilganlardan boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida turli umumlashtirish va mavhumlashtirish usullaridan foydalanish ma'lum bo'ladi.

Ularning mavhumlashtirish va umumlashtirish faoliyati to'rtinchi sinfgacha asta sekin murakkablashib miqdori vasifati jihatdan o'zgarib boradi.

Shunday qilib, maxsus tashkil etilgan mavxumlashtirish va umumlashtirish usullarini o'rgatish bolalar taffakurining rivojlanishi maktab yoshidagi o'quvchilarning taffakuri mantiqiy fikrlash mulohaza yuritish hukm va xulosa chiqarish taqqoslash tahlil qilishning turli usullarini qo'llashdek o'ziga xos xususiyatlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalardan va o'smirlar tafakuridan keskin farq qiladi. Bolalar taffakurida yaqqol obrazlarga suyanib mulohaza yuritish ya'ni yaqqol taffakur muhim taffakurdan ma'lum darajada ustun turadi. Va ularning taffakuri yosh xususiyatiga mutloqo mosligini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida taffakur operatsiyalarini mustaqil fikrlashni o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilari maqol topish orqali rivojlanadi.

II-BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy taraqqiyot rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy taraqqiyoti rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar

Bugunga kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan ta'lim jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har qanday insonning o'sish, rivojlanish va shakllanish davrlari ta'lim-tarbiya faoliyatisiz amalgam oshmaydi. Aqliy taraqqiyot va ta'lim-tarbiya, bir-biriga chambarchas bog'liq faoliyatdir. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish hozirgi davr talabi bo'lib, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, o'quv dasturini mukammallashtirish, muammoli darslarni tashkil qilish ta'limni mukammallashtirishga qaratilgandir. Ta'lim jarayonida o'quvchi faollik ko'rsatmasa amalgam oshirilayotgan tadbirlar ko'zlangan natijani bermaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish ham muhimdir. Ta'lim jarayonida ular, maktab o'quvchilariga qo'yiladigan har – xil talablar bilan tanishadi. Fanlarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyorlanadi. Ular psixikasida bilim olish uchun ko'nikma, malakalar yetarli darajada rivojlanib boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati boladan nutq, tafakkur, qobiliyat rivojlanishi uchun yangi sharoit yaratadi. Maktabga kelgash bola o'z atrofidaqlar bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U o'zining hayotini tubdan o'zgartirishni, unga yangi majburiyatlar, o'quv faoliyati talablariga bo'y so'nish, har kun maktabga borishni his eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati yutuqlari bilan qiziqayotganligi, shuningdek uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangicha shakldagi munosabat uning ijtimoiy mavqei o'zgarganligini to'la his etishga o'ziga nisbatan munosabatning o'zgarishiga asos bo'ladi. Ta'lim jarayonidagi barcha imkoniyatlar orqali ularning bilimlar egallash ko'lamini kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatni ishga solish vujudga keladi. Ular har bir narsaga berilib, sinchkovlik bilan ular o'rtasidagi farqni ajratish, umumlashtirish, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bola maktabga qadam qo'yishi bilanoq unga bo'lgan munosabat va talablar orqali o'ziga xos bo'lgan aqliy rivojlanish xususiyatlari uchun imkoniyatlar va shart – sharoitlar yaratish oila, maktab ta'lim tizimiga ulkam ma'suliyat hissini yuklaydi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk axloqiy odobli, kishilar bolib yetishishi hozirgi kunning muhim vazifadir. Ma'lumki o'quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo'lga qo'yish uchun avvallo ularning harakter xususiyatlarini qanchalik tarkib topganligini

aniqlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlashtirgani aniqlamay ular bilan yakka yakka munosabatga kirishish mumkin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar ishonuvchan tashqi tasurotlarga beriluvchan bo'ladilar. Buyuk alomallarimiz ta'kidlaganidek, kishining fe'l atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotiningdastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar mustahkam o'rinishib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida tabiiy hissiyotlarni fazilatlarini tarkib toptirish yukask axloq normalarini shakllantirish uchun butun ma'suliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur davrida o'qituvchining har bir gapi har bir hatti harakati ta'sir ko'rsatish uning uchun haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarga qattiq ishonadilar. Uning fikr mulohazalariga quloq soladilar. Pedagogik nazokatida jiddiy tasvirlanadilar. Talablarga hamisha amal qiladilar. U bergan topshiriqlarni bekamu kust bajarishga intiladilar. Ana shu davrga o'qituvchi uchun o'qituvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish ijobiy his tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qullab quvvatlash ularni atrofdagi kishilar yordam berishga undoshadi. To'g'ri mulohaza yurtishga o'rganish noma'qul qiliqlardan tiyish va musiqa tinglashga odatlantirish ularga nimalar bilan shug'ulanish kerakligini burch hissini tushuntirish ular bilan o'qilgan kitoblarni ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi shu ularni g'aroyibotlar olamiga olib kirishi faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi.

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarni rivojlantirishdagi koz'langan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini xisobga olish shart

Ma'lumki o'quvchilarning psixologik xususiyatlari har hilbo'lib bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan qo'llangan tarbiyaviy ta'sir vositasi boshqa birga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlash o'quvchilarga yakka-yakka yondoshib amalgam oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

Mana shunday yondashishlar o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davridagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topish.

O'qishni talab qiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarga g'amxo'rliqi pedagogik odobi o'z hatti harakatining natijasini oldindan ko'ra olish muhim ro'l o'ynaydi.

Mazkur vazifalarni amalgam oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqilona yo'l topa olish muvoffaqiyatlarning garovidir.

Ta'lim - tarbiya jarayonida bolalarni hayoti va faoliyatini shunday uyushtirish lozimki bunda bolalarda shaxsning kichik yoshda o'quvchilarda tarkib topgan xususiyatlar toboro boyib

va mustahkamlanib boradi. Maktab ta'limini dastlabki yillaridagi qiziqishlar, hususan bilishga bo'lgan qiziqishlar, tevarak atrofdagi olamni bilishga bo'lgan qiziqish ko'proq intellektual qiziquvchanlikni sezilarli ravishda rivojlantiradi.

Psixologlarni ta'kidlashicha, dastavval ayrim faktlarga, boshqa narsalardan ajratib olinadigan hodisalarga nisbatan qiziqishlar hosil bo'ladi. O'qish faoliyatida kichik yoshdagi o'quvchilarning aqliy jarayonlari bilish uchun bo'lgan qiziqishlar bilan faollashib qiziqish o'quvchilarning aqliy faoliyati asosida paydo bo'ladi va uning shaxsiy individual sifatida o'quvchilarning ana shu aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. O'quvchilarning qiziqishlari mazmuni, barqarorligi jihatdan hilma –xildir. Keng mazmunli va barqaror qiziqishlar o'quvchilarning yoshligidan paydo bo'la boshlaydi.

Ma'lumki I-II sinf o'quvchilarida hali yaqqol namoyon bo'lmaydi, o'quvchilar o'qish jarayonida hamma narsalarga qiziqish bilan munosabatda bo'ladilar. O'zlari o'zlashtirgan faoliyat ularni qanoatlantiradi. Keyinchalik esa sabablarni, qonuniyatlarni hodisalar o'rtasidagi aloqa va bog'liqliklarni bilib olish uchun bo'lgan qiziqishlar rivojlanadi. Agar I-II sinf o'quvchilarini “Bu nima?” – degan savol ko'proq qiziqitirsa, bir muncha kattaroq yoshdagi bolalar uchun “Nima sababdan?” , “Qanday qilib?” degan savollar muhim bo'lib qoladi. O'qish malakasining rivojlanishi bilan kitob o'qishga qiziqish yuzaga keladi. Dastavval kitob o'qishga, undan so'ng esa mazmuni o'tkir va qiziqarli bo'lgan muayyan adabiyotlarni, ertaklarni o'qishga, bundan so'ng qiyin bo'lmagan ilmiy sarguzashtlar haqida kitoblarni o'qishga qiziqish paydo bo'ladi.

Ma'lumki I-II sinf o'quvchilarini o'zlashtirayotgan materialni mazmuni, o'quvchilarning ishlarning ayrim usullari o'ziga jalb eta boshlaydi. III va IV sinf o'quvchilarining mustahilligi o'sib boradi. Bu yoshdagi o'quvchilar aqliy faoliyat usullari, o'z xotirasi, nutqi, diqqati hamda irodasini o'stirish uchun bog'liq bo'lgan barcha ishlarga qiziq boshlaydi. IV sinfda o'quvchilar o'zlarining har xil fanga bo'lgan aniq belgilaydilar. Bu fanlardan ba'zilar ko'proq e'tibor berib uni yoqtirsalar, ba'zilarini yoqtirmaydilar. O'quvchilar qaysi ishdan ko'proq qanoat hosil qilsalar, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi. Bola ma'lum ishni bajarayotganda o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmasligi, o'ziga topshirilgan ishni bajara olishini bilish, buning uchun esa faqat g'ayrat – jijoat halollik ko'rsatish kerakligini anglashi kerak. O'quvchilarda ta'lim va tarbiya olish, dam olish tartibining to'g'ri uyushtirilishi ham o'quvchilarda qiziqishlarning barqaror bo'lishiga muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida bir hillik, uzoq cho'zilgan faoliyat ko'p hollarda bolani toliqtiradi, uning faolligini pasaytiradi va hali to'la belgilanib bo'lmagan qiziqishlarni so'ndiradi.

O'quvchilarni qiziqishlari kattalarni diqqat e'tiborida bo'lishi lozim. Bolalarni ijobiy qiziqishlari kattalar tomonidan rag'batlantirishi, quvvatlantirilishi kerak. Ularni qiziqishlarina

payqash, uning uchun eng sevimli, doimo o'ziga jalb etadigan faoliyatni e'tiborga olmaydigan o'qituvchi va ota-onalar yomon pedagog va yomon tarbiyachidir.

O'quvchi uchun o'qituvchi hayotining eng yaxshi idealidir. Doimo oldinga qarab intiluvchi, mazmunli keng qiziqishlar bilan yashovchi o'qituvchi o'quvchilarga yuksak ma'naviy qiziqishlarni, aqliy rivojlanishni paydo bo'lishiga yordam beradi.

Shu bilan bir qatorda texnikaga, hozirgi zamon texnikalari, eng yangi tipdagi avtomobil, samolyot, kopmyuterga bo'lgan qiziqishlar tez tarkib topadi. Qishloq maktablarining III va IV sinf o'quvchilari qishloq xo'jaligiga nisbatan sezilarli darajada o'z qiziqishlarini namoyon qila boshlaydi. Bolalar parandalarni, uy hayvonlarini bajonidil boqadilar va ular ha'qida ma'lumotlar to'play boshlaydilar.

Bu esa bolalarni bilish darajasini rivojlanishiga ta'sir etib boradi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishga bo'lgan izishni rivojlanishi to'g'ridan – to'g'ri ta'limning tashkil qilinishiga bog'liq. Shuning uchun o'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarida qiziqishlar rivojlanishining qonuniyatlarini nazarda tutishlari kerak.

O'quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, tasvirlashdan tushuntirishga, faktlardan umumlashtirishga qarab boradi. O'quvchilarni ta'limni o'zlashtirishga quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

O'quvchilar qanchalik yosh bo'lsalar, ta'lim shunchalik ko'rgazmali bo'lishi hamda faol harakt qilish katta rol o'ynaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xususan o'qituvchining tegishli bahosi bilan aniqlaniladigan bolaning o'qishdagi o'z muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritgan yutuqlarini ichdan his qilish katta ahamiyatga ega.

Barcha o'quvchilar bir xil bilimga ega emas, ular turli tayyorgarlik darajasiga ega va bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Shu sababli berilgan materialni bilmaslik past o'zlashtirishning asl sababini ko'rsatmasligi mumkin.

Ma'lumki, ko'pchilik pedagoglar o'quvchilarning aqliyrivojlanishini baholashda qiynaladilar va buning oqibatida ularning ish faoliyatida ta'lim jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim omil go'yoki chetda qolib ketadi.

Avvalombor shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'quvchilarning aqliy rivojlanish darajasi ulardagi nazariy yoki amaliy bilim olishga bo'lgan qobiliyat yoki bilimning mavjudligi bilangina aniqlanmaydi. O'quvchining aqliy rivojlanish darajasi tafakkur jarayonlarining rivojlanganligi, o'quv materialining muhim va asosiylarni ajrata olishi, olgan bilim yoki hosil qilingan, o'zlashtirilgan ko'nikmani boshqa faoliyatga ko'chira olishi, turli nazariy bilimlarni amalda qo'llay olishi, mustaqil fikrlashi, xulosa chiqara olishi kabi bir qancha belgilar bilan aniqlanadi.

Uchinchi sinf o'quvchilarning odob tog'risidagi fikr, va mulohazalari mazmuni va shakli va tuzilishi bilan fikr mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko'lamiga kengroqligi yosh davri xususiyatiga bog'liq farq bilan narsaga turlicha qarsh har xil yondashish muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo'yicha ham farqlar mavjuddir.

I-III sinf o'quvchilarida axloqiy tushunchalarni tarkib topishi uchun avvalo har bir tushunchaning muhim alomatini ajratishning umumlashtiruvchi ikkinchi darajali belgilarni topishi o'zgartirish zarurligini ko'rsatadi.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy rivojlanishida qo'llaniladigan metodikalar

Amaliy faoliyat shakllantirishga qaratilgan ishlar butun jahon miqyosida har bir sohada keng qamrovli olib borilmoqda. Aynan, shu jarayonga tayyorgarlikni bolalik davridan boshlab psixologik bilimlar asosida olib borilsa barkamol avlod tarbiyasiga samarali ta'sir etish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa ta'lim jarayonida aqliy taraqqiyotni aniqlashga qaratilgan maxsus usullar yordamida amalga oshiriladi.

Bola maktab ostonasiga qadam qo'yishi bilan yangi hayot faoliyatiga yangi muhit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham tevarak atrofdagi narsalarga ham munosabat o'zgaradi. Endi u o'quvchi degan sharaflilik nomiga ega uning uning muayyan vazifalari va o'quvchilik burchi bor. Bola o'z hayotida yangi davr boshlanganini anglaydi. O'qish ma'suliyati uning xatti - harakatlariga yurish-turishiga xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoshidagi bola maktab qoidalariga rioya qilishi mashg'ulotlarga kechikmay o'z vaqtida bajarishi lozim. Darsda o'zini qanday qanday tutishi gigiyena va tozalikka rioya qilishi o'qituvchi va katta tomonidan berilgan buyruq va ko'rsatmalar so'zsiz bajarish jamiyat orasida o'zini qanday tutishi lozimligini bilishi kerak. Kichik maktab yoshi davrining ahamiyatli tomoni shundaki bolaning bog'cha yoshi davrida to'plangan shaxsiy tajribasi til boyligi bilish jarayonlari tartibga tusha boshlaydi. U ham intiliktual ham axloq ham ijtimoiy tomondan rivojlanib ulg'aya boshlaydi. J. Piagetning ma'lumotlariga ko'ra 6-7 yoshli bolaning intiliktual salohiyatida keskin burilishlar ro'y beradi. Uning xotirasi yaxshi bo'lib tartibga tushadi.

Endi u ko'proq o'zi hohlagan narsalarni unda saqlab qoladigan bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda bola shaxsiy yutuqlari o'qishda sporda, bolalar orsidagi nufuzi va obro'yi katta ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda bolalar o'zlarining qaysi jinsga mansubligini teran anglaydi. Maktabda o'g'il va qiz bolalar guruhi shakllanadi. Har bir guruhning o'zining o'ziga xos qiziqishlari mashg'ulotlari bo'lib qizlarning davrasida bo'lish masalan o'g'il bola uchun noqulay bo'lib qoladi. Eng muhimi bu davrda axloqiy meyyorlarning ma'nosini tushinish axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ma'naviy tasavvurlarning shakllanishi uchun o'ta sezgir va qulay hisoblanadi.

Maktabga kirish bolaning hayotida uning faoliyatini burilish davri hisoblanadi. Kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar maydonga keladi. Bola butun bir yangi jamoalar tizimiga qo'shiladi. Ta'limning boshlanishi bilan bola psixikasida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. U psixologik jihatdan qayta qurilishga duch keladi. O'quv jarayoni 1-sinf o'quvchilarining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Chunki o'quv faoliyatida zavqli o'quvchi bo'lish maktab talablarini ado etish maroqlidir. So'ngra o'qish jarayonining o'ziga bo'lgan qiziqishi o'qish samarasiga ko'chadi. O'quvchi bolalarning muayyan maqsadga qaratilgan faoliyati qiziqishlarni rivojlantiradi. Agar o'quvchilarning ijtimoiy qiziqishlari jamoatchilik hislari rag'batlantirilsa bu qiziqishlar shaxsni bir ajralmas xislati bo'lib qoladi. Ta'lim jarayonida o'quv amallarini o'qituvchi tomonidan nazorat qilib borilishi o'quvchini o'qishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantiradi, va o'qishfaoliyati motivlari ham shakllanadi. 1-sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini motivi muayyan bir maqsadga aniq yo'naltirilmagan bo'lsa III – IV – sinf o'quvchilarining o'quv motivlari aniq bir maqsadni ko'zlashga qaratiladi. Ular nima uchun o'qish bilim olish a'lochi bo'lishning motivlarini his qiladi. Ular yaxshi o'qisa kelgusida muhandis, o'qituvchi, shifokor bo'lishini biladi. Maktabga kirgan davridan boshlab uning asosiy faoliyati o'qish ekanini tushingach o'quvchi muhim ijtimoiy vazifa o'qish bilim orttirish vazifasidan iborat ekanini bilib oladi.

Bunday natijaga erishish uchun o'qituvchidan o'quvchining individual psixalogik xususiyati teprament xarakter qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olishi zarur bo'ladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga oib ta'lim jaryoni tashkil qilinsa o'quvchilarning aqliy rivojlanishi sifati yaxshilana boshladi. Aqliy o'sishni xarakterlovchi aqliy faoliyatni bilmay turib o'quvchi shaxsni tushinish mumkin emas. O'quvchinig qanchlik aqliy o'sganligi asosan quyidagilarda ko'rinadi:

a) o'quv materialini nisbatan yengil o'zlashtirishi;

b) mustaqil ravishda masalalar qo'ya bilish va ularni o'ziga xos usulda yecha olish.

v) aqliy faoliyatning tezligi

g) narsa va hodisalarning mohiyatini chuqur tushinishi muhim belgilarni muhim bo'lmagan ikkinchi darajali belgilardan farqlay olish

d) aqlning tanqidchanligi taxminiy asoslanmagan hukmlarning yo'qligi;

Hamma o'quvchilar maktabga kelib bilim, olishlari bilan birga aqliy tomondan o'sadilar.

Har bir o'quvchi ma'lumki aqliy o'sish jihatdan bir-biridan farqlanadi, fan asoslarini hamma o'quvchilar birday yengillik bilan o'zlashtirmaydilar.

Insonning aqliy faoliyati bilishga tajribaga va ijodiy tafakkurga asoslanadi. Yangilikni yaratish insonda ilgari idrok etilgan predmet va hodisalar haqida tasavvurlar amalgam oshmaydi. Aqliy faoliyat xususiyatlari qiziqishlar, ehtiyojlar, qobiliyatlar, bilimlar, ko'nikmalar, odatlar bilan uzviy bog'langan.

Inson aqliy faoliyati turli metodikalar va ishlab chiqilgan maxsus testlar yordamida o'rganiladi. Shunday metodikalardan biri "Intiliktni o'rganish" metodikasidir. Inson aqliy faoliyatini o'rganishning keng tarqalgan metodikalardan biri amerikalik olim D.Velisliz tomondan ishlab chiqilgan testlardir. Bu testlar asosan katta yoshdagilar intellektini tekshirishga mo'ljallangan bo'lib keyinchalik 5 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirish uchun o'zgartirishlar kiritildi. Mazkur metod 11 ta alohida tuzilgan subtestlardan iborat bo'lib, ularning 6 tasi verbal va noverbal topshiriqlardan tashkil topgan. O'quvchilar aqliy rivojlanish darajalarini amaliy o'rganish uchun ta'lim jarayonida aqliy taraqqiyotni o'stiruvchi metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Masalan aqlida hisoblay olish.

Umumiy bilimdonlik subtesti, ya'ni sinaluvchilarga savol beriladi va har bir savol baholab boriladi.

Umumiy ziyalik subtesti iboralarining mazmunini, nutqni tushunishni, fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy meyorlarni tushunishni baholash.

Arifmetik subtesti, sinaluvchilar diqqatini to'planishi, ifodalarni tez yechishni tekshiradi.

So'zlar subtesti, o'g'zaki tajribalarni o'rganishga mo'ljallangan.

Sonlar qatorini takrorlash subtesti, qisqa muddatli xotira va diqqatni o'rganishga mo'ljallangan.

Yetishmaydigan qismni topish subtesti, ko'rish idroki xususiyatlarining kuzatuvchanlikning muhim qismlarini farqlay olish qobiliyatini o'rganishga mo'ljallangan.

Rasmlar ketma – ketlik subtesti, parchalarni mantiqiga bir butun qilib birlashtirish orqali oldindan bilish qobiliyatini tekshirishga mo`ljallangan.

Figuralarni yasash, sinaluvchilarga ma`lum ketma – ketlikda bir qanch figuralarning qismlari beriladi. Sinaluvchilarga bu qismlardan nima yasash aytiladi.

Raqmlarni shirfkash subtesti, bu orqali ko`rish, xarakat malakalarini o`zlashtirganlik darajasini aniqlashga mo`ljallangan.

“Rubel kubiklari” o`xshashlik va farqlarni ajralish metokilaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Aqlda hisoblay olish metodikasi yordami bilan bolaning arifmetik amallarni va turli xil kasr sonlar yani oddiy o`nli butun kasrlarni tezlikda ” aqlda ishlay olish qobiliyatini psixodiagnostika qilish mumkin.

Agar bolaga sanoqni yoshiga qadar o`rgatilgan bo`lsa unda berilgan metodikani maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab qo`llash mumkin. Asosan bu metodika maktab yoshidagi o`quvchi bolalarning qobiliyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Shu o`rinda boshlang`ich sinf o`quvchilarining aqliy taraqqiyotini rivojlantirishda qo`llaniladigan bir necha metodikalardan foydalanish uchun to`liq holda tavsiya etamiz. Bu metodikalar o`quvchilarni faollikka undaydi, qiziqishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ortiqchasini o`cherish metodikasi umumlashirish va chalg`ish muhim belgini ajratish kabi tafakkur jarayonlari darajasini o`rganish uchun qo`llaniladi. Bu metodikaning ham ikki turi bor: predmetli va so`zli. Metodika o`tkazilish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

O`quvchilarga beshta so'z beriladi. Ularning to'rttasi umumiy belgi bilan birlashtirilgan. Beshinchi so'z ularga to'g'ri kelmaydi. Uni topib tagiga chizish kerak. Faqat bir so'z ortiqcha bo'lishi mumkin.

Misol:

A) tarelka, b) piyola, v) stol, g) kastyulka, d) choynak.

Birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, beshinchi so'zlar idishni bildiradi. Uchinchi so'z mebel, shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

A) bormoq, b) sakramoq, v) o'ynamoq, g) o'tirmoq, d) qochmoq.

To'rtta so'z harakat holatini bildiradi. «O'tirmoq» so'zi esa tinch holatni bildiradi, shuning uchun tagiga chizilgan.

1. a) stol, b) stul, v) kravat, g) pol, d) shkaf.
2. a) sut, b) qaymoq, v) qatiq, g) pishloq, d) go`sht.
3. a) botinka, b) etik, v) bog`ich, g) tufli, d) so`mka.

4. a) bolg`a, b) arra, v) pichoq, g) bolta, d) randa.
5. a) shirin, b) issiq, v) achchiq, g) dnordon, d) sho`r.
6. a) terak, b) tol, v) doira, g) archa, d) chaftoli.
7. a) samolyot, b) arava, v) odam, g) kema, d) velosiped.
8. a) uchburchak, b) sanoq, v) to`trburchak, g) kvadrat, d) doira.
9. a) santimetr, b) metr, v) kilogramm, g) kilometr, d) millimetr.
10. a) palto, b)plash, v) ko`ylak, g) tugma, d) shim.

O`quvchlarga ikki so'z beriladi. Ular o'rtasida umumiylikni topish kerak. Har bir holatda muhimroq umumiy belgini umumiy so'z bilan ifodalashga intiling. Javobingizni juft so'zlar yoniga yozing.

Misol:

Qora qarag'ay - qarag'ay.

To'g'ri javob «ignabargli daraxt» bo'ladi. Bu so'zni berilgan ikki so'zning yoniga yozish kerak.

Keyingi misol: yomg'ir - do'l.

To'g'ri javob «yog'in-sochin» bo'ladi. Bu so'zni yozish kerak.

1. Onatili - Matematika.
2. Olma - Anor.
3. Kitob – Daftar.
4. Ertak - doston.
5. Yoz - qish
6. Qo`l - oyoq
7. Toshkent - Samarqand
8. Qoy - echki
9. Bo`ri - tulki
10. Oq - qora
11. Koptok - shar
12. Nixia - Tiko
13. Sut - qatiq
14. Etik - tufli
15. Oy - quyosh
16. Qor – yomg`ir
17. Ruchka - qalam
18. Doska – bo`r
19. Sabzi – sholg`om

20. Stol - stul

Keyingi metodika o'quvchilarni matematika faniga doir aqliy taraqqiyotini aniqlash uchun qo'llaniladi.

O'quvchilarga ma'lum qoida bo'yicha joylashgan sonlar qatori beriladi. Ularning vazifasi qatorning davomini bildiradigan sonni topish va uni yozishdan iborat. Har bir qator o'ziga xos qoidaga asosan tuzilgan. Ayrim topshiriqlardan qatorning tuzilish qoidasini topish uchun ko'paytirish, bo'lish va boshqa amallardan foydalanishlariga to'g'ri keladi.

Misol:

2 4 6 8 10 ...

Bu qatorda har bir keyingi son oldingisidan ikkita ortiq. Shuning uchun keyingi son 12 bo'ladi. Uni yozish kerak.

Navbatdagi misol:

9 7 10 8 11 9 12 ...

Bu qatorda navbat bilan 2 ayrilib, 3 qo'shilyapti, keyingi son 10, uni yozish kerak.

1.	6	9	12	15	18	21	...
2.	9	1	7	1	5	1	...
3.	2	3	5	6	8	9	...
4.	10	12	9	11	8	10	...
5.	1	3	6	8	16	18	...
6.	3	4	6	9	13	18	...
7.	15	13	16	12	17	11	...
8.	1	2	4	8	16	32	...
9.	1	2	5	10	17	26	...
10.	1	4	9	16	25	36	...
11.	1	2	6	16	31	56	...
12.	31	24	18	13	9	6	...
13.	147	171	57	54	18	15	...
14.	54	19	18	14	6	9	...

Savollar

1. **Ism**, sharif, familiyang nima?
2. **Ota** - onangni ism sharifi va familiyasini aytib ber?
3. Sen qaerda yashaysan uy masnzilingni aytib ber? .
4. **Yoshing** nechada. Bir yildan keyin necha yoshga to'lasan?
5. **Kunduzi** yorug', kechasi...
6. Yil fasllarini sana. hozir yilning qaysi fasli? qaysi faslda daraxtlar gullaydi?
7. Qanday qushlarni, hashoratlarni bilasan?

8. Qanday yovvoyi hayvonlarni bilasan? Ular qaerdayashaydi?
9. Sigirni bolasi buzoqcha, qo'yning bolasi..., otning bolasi...?
10. Maktabda qo'ng'iroq va parta nima uchun kerak?
11. Oltidan oldingi va keyingi sonni ayt. 7 dan 12gachasana, endi teskarisini sana...
12. O'ynash yaxshimi yoki o'qish?
13. O'ng qo'ling bilan chap qulog'ingni, chap qo'lingni bosh barmog'i bilan o'ng ko'zingni ko'rsat. Nima uchun ko'z va quloq kerak?
14. O'qituvchi, oshpaz, quruvchi va shifokor nima ish qiladilar?
15. Hilola va Sevara qizil va sariq shar sotib olishdi. Hilolaning shari qizil emas. Sevaraning shari qanday rangda?
16. So'zlarning juftini top: katta-kichik, baland-past, yaxshi -..., issiq - ...?
17. Shunday bo'lishi mumkinmi? Kuchuk miyovlaydi, sigirlar uchadi, archada olmalar pishadi.
18. Qaysi bayramda va qachon sumalak pishiriladi?
19. Baliq - uchadimi yoki suzadimi? Qush uchadi, ilon..., qayiq ... , mashina... ,
20. Agarda bilmasdan bironing narsasini sindirib qo'ysang, nima qilish kerak?

Muloqot davomida javoblarni baholash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Har bir savolga to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi (3, 4, 11 dan tashqari)
2. To'g'ri, lekin to'li bo'lmagan javob uchun 0,5 ball beriladi.
3. Agar savollarga berilgan javoblar qoniqarsiz bo'lsa, ular noto'g'ri hisoblanadi va 0 ball beriladi.
4. 3-savolga to'g'ri javob uchun: shahar nomi bilan to'liq uy manzilini aytsa 2 ball, to'liq bo'lmagan javob uchun 1 ball.
5. 4-savolga to'g'ri javob uchun: agar necha yoshdaligini bilsa-1 ball, agar oylari bilan qo'shib aytsa 3 ball.
6. 11 - savolga to'liq javob bersa, 2 ball, agar sonlar ketma - ketligini sanashda xatoliklar bo'lsa, 1 ball beriladi.
7. 10,11,12 savollarga berilgan javoblar ijobiy bo'lsa, bolaning o'quvmotivi ijobiy deb baholanadi.

Muloqot natijalarini umumlashtirish:

Ballarning umumiy yig'indisi 20-24 ballgacha bo'lsa, bola ijtimoiy - psixologik jihatdan maktabda ta'lim olishga tayyor.

16-19 ballgacha bo'lsa, ijtimoiy - psixologik jihatdan o'rta tayyorgarlikka ega;

11-15 ballgacha bo'lsa, ijtimoiy - psixologik jihatdan tayyorgarligi past.

Barcha topshiriqlar bo'yicha umumiy ball chiqarish oson bo'lishi uchun natijalar shartli ballarga aylantiriladi:

20 - 24 ball - 3 ball 16- 19 ball- 2 ball 11 - 15ball - 1 ball.

Barcha topshiriqlar bo'yicha psixologik - pedagogik tashxis natijalarini xulosalash.

Olti yoshli bolalarning psixologik - pedagogik tashxisdan o'tkazilgandan sp'ng har bir topshiriq bo'yicha olgan ballari umumlashtirilib yakuniy ball chiqariladi.

28 - 34 ball bo'lsa - bola maktabda ta'lim olishga tayyor

21 - 27 ball bo'lsa - bola maktabda ta'lim olishi mumkin

16 - 20 ball bo'lsa - bola maktabda ta'lim olishga tayyor emas **0-15 ball** bo'lsa -bola maktabda ta'lim olishga tayyor emas va chuqurroq psixologik defektologik tashxisdan o'tkazishga tavsiya etiladi.

“O'xshashlik va farqlarni ajratish” metodikasi

Tushunchani tariflash sabablarini izohlash predmetlarning o'xshashlik va farqini aniqlash tafakkur jarayonlarini baholash orqali biz bolaning aqliy rivojlanish darajasini o'rganishimiz mumkin.

Bu tafakkur jarayonlari bolaning quyidagi savollarga to'g'ri javob berishiga qarab aniqlanadi.

1. Bu hayvonlarni qaysi biri katta? otmi yoki itmi? (To'g'ri javob ot)
2. Ertalab odamlar nonushta qiladi. Kunduzi va kuchqurunchi? (To'g'ri javob ovqatlanadi)
3. Kunduzi ko'chada yorug', kechqurunchi? (To'g'ri javob qorong'u)
4. Osmon ko'm-ko'k, o'tlarchi? (To'g'ri javob yashil)
5. Gilos, nok, olxo'ri va olma bu ... ? (To'g'ri javob mevalar)
6. Poyezd o'tayotganda nega shlagbaum tushiriladi?
7. Toshkent, Xiva, Samarqand, nima? (To'g'ri javob shaxarlar)
8. Soat necha bo'ldi? (Bolaga soatni ko'rsatib vaqtни aytib berish so'raladi) (To'g'ri javob soat millari ko'rsatgan vaqt)
9. Sigirning kichigi buzoq deyiladi. Kichik it va qo'yni nima deyiladi? (To'g'ri javob kuchuk va qo'zi)
10. It ko'proq nimaga o'xshaydi? Mushukkami yoki tovuqqa? Javob ber va tushintirib ber, nima uchun shunday deb o'ylaysan?
11. Avtomobilga tormoz nima uchun kerak? (Kerak bo'lganda avtomobil tezligini pasaytirishini ko'rsatuvchi biror bir javob to'g'ri topiladi)
12. Bolta va arra bir-biriga qay jihatdan o'xshash? (o'tkirligi va kesichi)

13. Olmaxon bilan mushuk orasida qanday o'xshashlik bor?

(Kamida ikkita o'xshash belgilarni to'g'ri ko'rsatilgan javob to'g'ri.

Masalan bular- hayvonlar, daraxtga chiqa oladilar, mayin yung bilan qoplanganligi, dumi va to'rtta oyog'i borligi)

14. Mix, vint, shurup bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

(To'g'ri javob mixning yuzasi tekis, vint va shurup burama kerakli mix bolg'a bilan uriladi, vint va mix yumaloqdir.)

15. Fudbol uzunlikka va balandlikka sakrash tennis, suzish nima? (To'g'ri javob sport turlari)

16. Trasportning qanday turlarini bilasiz? (aftobus, yuk mashina, yengil mashina)

17. Yosh odam katta odamdan qanday farqlanadi? (Javobda yoshlar bilan keksalar o'rtasidagi kamida ikkita farq sanaladi)

18. Nima uchun odamlar jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadi.

(Quyidagi javoblar to'g'ri deb topilishi mumkin. Sog'lom bo'lish uchun kuchli bo'lish uchun chiroyli bo'lish uchun musobaqada g'olib bo'lish uchun)

19. Nima uchun ishlamaslik yomon? (Javob – chunki hamma odamlar ishlashi kerak, negaki yaxshi yashab bo'lmaydi. Chunki bu odam o'rniga boshqalar ishlashi kerak bo'ladi;

Ishlamasa kerakli narsalarni sotib lolomaydi oziq – ovqat, turar joy va boshqalar)

20. Nima uchun konvertga marka yopishtiriladi? (Javob pochta orqali to'lanadigan haq.)

Natijalarni qayta ishlash

Har bir to'g'ri javob uchun 0,5 ball 10.

Yuqoridagi metodika maktabga kelayotgan bolaning so'z mantiqiy fikr yuritish qobiliyatini psixologik tashhis qilish uchun qo'llaniladi. Bu metodika aqliy xulosa chiqara olish qobiliyatidan tashqari bolaning aqliy fikrlay olish faoliyati to'g'risida ham ozmi ko'pmi xulosa qilish imkonini beradi.

Rivojlanish darajasi haqida xulosa.

10 ball - juda yuqori

2-3 ball quyi

4-7 ball o'rtacha

0,-1 ball past juda

Bolalarning aqliy rivojlanishini bunday metodikalardan tashqari turli didaktik o'yinlar vositasida ham oshirish va mashqlantirish mumkin. Bu metodikalar bolalarning tafakkurini va qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida didaktik o'yinlar ham alohida ahamiyatga ega. Unda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatiladi. Didaktik o'yinlar mazmuni tinch o'yinlar, harakatli o'yinlar, aralash tipdagi o'yinlar shakliga ko'ra musobaqa o'yinlar, sahna o'yinlariga bo'linadi.

Didaktik o'yinlar orqali bolani aqliy taraqqiyotini rivojlantirishda ta'lim jarayonida foydalanish muhim deb bildik.

Har bir o'qituvchi o'quvchilarni aqliy rivojlanishiga e'tibor berishi barkamol shaxs sifatida kamol topishiga zamin hozirlaydi.

XULOSA

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da shaxsni rivojlantirishga berilgan juda katta e’tiborning boisi shundaki, faqat shaxsning kamoloti uning intellektual zakovatigina jamiyat taraqqiyotining omili bo’la oladi. Shaxsdagi intellektual zakovat esa yaxshi tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayonidagina uyg’onishi, taraqqiy etishi va shaxs kamolotini ta’minlash mumkin. Har bir pedagog o’quvchilarning intellektual imkoniyatlarini maksimal ishga solish yo’lini izlab topishi lozim. Yoshlarimiz orasidan iqtidorli va iste’dodlisini izlab topish uchun ularning umumiy o’qish va o’zlashtirish jarayoniga qarab baho berishni noto’g’ri deb hisoblaymiz. Chunki bolaning aniq bir kasb-korga yoki mutaxassislikka qiziqishi, ma’lum ijodiyot bilan bandligi barcha o’quv jarayonini qamrab ola olmaydi.

Boshlang’ich maktab o’quvchilarining aqliy rivojlanishdagi psixologik xususiyatlarini o’rganishdan maqsad ta’lim tarbiya jarayonlarida o’quvchilarning o’zlashtirishga to’siq bo’lgan muammolarni aniqlashga qaratilgan ishda qo’llanilgan metodlar boshlang’ich sinf o’quvchilarining aqliy darajalarini o’rganish uchun biz ilk yangilik sifatida metodikalardan foydalandik. Psixologik xodisalar o’zlashtirish jarayonida qanday bo’lishini aniqladik bevosita bu jarayonni aniqlashimizdan maqsad o’qituvchiga ham ma’lum bir yordam berishdir. Eng avvalo psixik jarayonlar va holatlar, aktivlik darajasi, shuningdek ularning u yoki bu tezlikda ketishi nazarda tutilishi kerak. Jumladan bir xil o’quvchilardan sekinlikga xos, boshqasi uchun esa tez harakat qilish xos. Ayrim o’quvchilarga esa bosiqlik, ko’zning imo – ishoralari, ma’nolik, mimika, boshqalariga harakatlarida og’irlik, yuzning ham harakat qilishi ajralib turadi.

Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kundalik faoliyat zarur. Faoliyat yordamidagina bola atrof-muhit bilan munosabatni tashkil etadi, shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, xarakter sifatлари takomillashib, kamol topadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiyaga bog’lab o’rganish, talqin qishil ham haqiqatga unchalik to’g’ri kelmaydi. Chunki ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o’zi ham faol ishtirok etadi.

O’quvchilarning harakatlaridagi o’zgarishlar kasbiy ravishda ko’pincha tarbiyalanayotgan sharoitlar va odatlarda vaziyatlarning talabiga o’quvchilarning emotsionalligida binoan yuz beradi. Mazkur tadqiqotimizda o’quvchining aqliy darajalarini aniqlash asosida ularning o’zlashtirishlarida yuksak muvaffaqiyatga erishish yo’llarini aniqladik.

Shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy muhitda ta'lim-tarbiyaga shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod, qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqa boshlaydi.

Qobiliyat va iste'dodning ro'yobga chiqishida insonning muayyan faoliyatiga qiziqishi bilan bir qatorda uning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda aqliy taraqqiyot rivojlanishida bilish jarayonlariga e'tibor berish va rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil fikrlashga o'rgatish ham ta'lim jarayonida samarali vositalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy tushunchalar shakllanishida aqliy jarayoni muhimligiga e'tibor berish.

O'quvchilarda odob-axloq qoidasiga amal qilishlikka o'rgatish.

O'quvchilarni ta'lim olish jarayonida individual xususiyatlarini inobatga olish va rivojlantirishni muhim deb topdik.

ABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: O'zbekiston 2011 y
 2. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori .
T.: "Sharq" 1998 y -64 b.
 3. Karimov I.A. O'zbekiston 21 asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston 2000 y-352 b.
 4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz
T.: O'zbekiston 2001 y- 432 b.
 5. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi . T.: Sharq 1998 y-182 b.
 6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2008 y-176
 7. Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li" T.:
"O'zbekiston " 1992 y.
 8. Asqarova M, G'. Qodirova "Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish" T.: "O'qituvchi"
2001 y
 9. Akbarova R.T. «Bolalarni usimliklar bilan tanishtiruvchi didaktik uyinlar»
 10. Boymurodov N Amaliy psixologiya T.: 2008 y- 316 b.
 11. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O'qituvchi. 1982 y.
 12. Jo'raev S. , F.Qodirov "Kichikintoylar nutqini o'stirish" T.: 2005 y.
 13. Ivanov P.I. M.Zufarova "Umumiy psixologiya" T.: 2008 y
 14. Nishonova Z. Alimova G. "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" T.: 2006 y
 15. Nishonova Z.T. Do'stmuxammedova Sh.A. To'lyaganova Sh.T. Pedagogik psixologiya.
Toshkent 2011
 16. Muminova, Sobirova va boshqalar. «Bolalar bogchasida ta'lim-tarbiya dasturlari»
 17. G'oziev E. Umumiy psixologiya T.: 2010 y.
 18. G'oziev E. "Ontogeniz psixologiyasi" 2010 y
 19. G'oziev E, Jabborov A. "Faoliyat va hулq – atvor motivatsiyasi" T. 2003 y
- Internet saytlari:**
- www.press-servis/ .uz.**
- www. Gov.uz.**
- www. Iscs.uz**
- www. Edu.uz.**
- www. Ziyo net. Uz**
- [www.jahon.tiv.uz.](http://www.jahon.tiv.uz)
- [www.press-uz.info.](http://www.press-uz.info)
- [www.uzreport.com.](http://www.uzreport.com)

